

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**BOSHLANG'ICH TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI**

“Himoya qilishga ruxsat beraman”  
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi  
fakulteti dekani

\_\_\_\_\_ dos.M.Rabbimov.  
“\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2012 y.

5141600 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha  
bakalavr darajasini olish uchun

**Mavzu: An'anaviy boshlang'ich maktablar va ularda o'qitish usullarining  
tarixi mavzusida bajarilgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajaruvchi: TO'YCHIEVA J.**

**Ilmiy rahbar: prof. Mirqosimova M.**

Ishni himoyaga tavsiya etaman:

**prof. Mirqosimova M.**  
(илмий раҳбар исми ва шарифи)

\_\_\_\_\_  
(имзо)

BMI Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti kafedrası  
yig'ilishining qarori bilan (Qaror № 10, 4.05.2012 y)  
himoyaga tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri:**

prof.Jumanazarov U.A.  
(Ismi va sharifi)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**Jizzax – 2012**

## **REJA:**

**KIRISH.....**

**AN'ANAVIY MAHALLIY MAKTABLAR VA ULARDA O'QITISH  
USULLARI.....**

1.1. An'anaviy mahalliy maktablar.....

1.2. Eski maktabda o'qish va yozishga o'rgatish usullari.....

1.3. Madrasalarda ta'limning tashkil etilishi va o'qitish usullari.....

**II BOB. CHOR ROSSIYASINING TURKISTONDA MAKTAB SIYOSATI:  
RUS-TUZEM MAKTABLARIDA O'QITISH MAZMUNI VA USULLARI...**

2.1. Rus tuzem maktablari .....

2.2. Rus-tuzem maktablarida o'qitish mazmuni va usullari.....

**XULOSALAR.....**

**ADABIYOTLAR RO'YXATI.....**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Yangi asr o'qituvchisini tayyorlashda uning pedagogik-psixologik va intellektual salohiyat bo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim tebo'yicha chuqur bilimga egaligi, innovatsion ta'lim texnologiyalari, ta'limning interfaol usullari va ilg'or samarali metodlariga oid ijodiy faollikni oshirishning samarali usullaridan xabardor bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining **«Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari»** asarida O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali amalga oshirish lozimligini ta'kidlagan<sup>1</sup>. Buni ta'minlash bo'lajak mutaxassislarni va ilmiy-pedagogik xodimlarni zamonaviy talablar asosida tayyorlashni taqozo etadi. Bu muhim vazifani hal qilishning samarali yo'llaridan biri mutaxassislarni ilmiy tadqiqot metodologiyasi bilan shug'ullana oladigan qilib tayyorlashdan iboratdir. Ushbu muammo echimini ham muhtaram Prezidentimiz o'zining **«Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch»** asarida “...farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli, yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsad va vazifasi bo'lishi lozim,” deb ta'kidladi<sup>2</sup>.

Yoshlarda insonparvarlikni shakllanishida ulug' allomalarimizning qoldirgan noyob asarlari va ularning o'gitlariga bog'liq bo'lib, bu hususda boy ma'naviy merosimiz asoschilari Yusuf Xos Hojib, Husayn Voiz Koshifiy, Kaykovus, Ibn Sino, Amir Temur, Beruniy, Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqa allomalarimizning ulkan xizmatlarini o'rganish va uni amalga tatbiq etish bugungi kunning, ayniqsa pedagogika fanining dolzarb vazifasi hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi** an'anaviy boshlang'ich maktablar va ularda o'qitish usullarini aniqlashdan iboratdir.

**Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti** an'anaviy boshlang'ich maktablar va ularda o'qitish usullarini o'qitish jarayoni olib qaraldi.

**Bitiruv malakaviy ishning predmeti** an'anaviy boshlang'ich maktablar va ularda o'qitish usullari asoslari hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishni bajarishdan ko'zlangan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni hal etish lozimligi aniqlandi:**

- Mavzuga oid pedagogik va ilmiy-metodik adabiyotlarni, me'yoriy hujjatlarni o'rganish tahlil qilish va umumlashtirish;

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. - Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 6.7.

<sup>2</sup> I.A.Karimov. “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – b.-61.

- Muammoning nazariy hamda amaliy asoslarini tadqiq qilish asosida uning dolzarb pedagogik muammo ekanligini dalillab berish;

- an'anaviy boshlang'ich maktablar va ularda o'qitish usullarini o'ziga xos va umumiy pedagogik xususiyatlarini aniqlash.

- ja an'anaviy boshlang'ich maktablar va ularda o'qitish usullarini nazariy asoslarini aniqlash.

- **Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi** an'anaviy boshlang'ich maktablar va ularda o'qitish usullarini xususiyatlari aniqlandi.

- an'anaviy boshlang'ich maktablar va ularda o'qitish usullarini o'ziga xos va umumiy pedagogik xususiyatlarini aniqlandi.

- an'anaviy boshlang'ich maktablar va ularda o'qitish usullarini nazariy asoslarini aniqlandi.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati** sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin: an'anaviy boshlang'ich maktablar va ularda o'qitish usullari, yo'llari ko'rsatildi.

Yoshlarning barkamol bo'lib ulg'ayishida an'anaviy boshlang'ich maktablar va ularda o'qitish usullari mashg'ulotlarining ahamiyati ochib berildi.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi quyidagicha:** kirish, ikki bob, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I BOB. AN'ANAVIY MAHALLIY MAKTABLAR VA ULARDA O'QITISH USULLARI**

### **1.1. An'anaviy mahalliy maktablar**

VIII asrdan boshlab Markaziy Osiyo arablar tomonidan bosib olingach, xalifa hamma masjidlar qoshida maktablar ochish haqida buyruq berdi. Asosan masjid imomi o'g'il bolalarni yig'ib o'qita boshladi. Shundan boshlab yaqin XX asr boshlariga qadar masjidlar qoshida, keyinroq esa ko'pgina madrasani xatm qilganlar va bola ta'lim-tarbiyasiga qiziqqanlar o'z uylarida, mahallalarning maxsus qurilmalarida maktab ochganlar va ularni "maktabdor" deb yuritganlar. Maktab arabcha "kataba"-yozmoq, ya'ni yozishga o'rgatadigan joy demakdir. Qadimda maktab yozishga o'rgatadigan joy ma'nosini bildirgan.

Eron va Markaziy Osiyo mamlakatlari, shaharlari o'rtasida madaniy-ma'naviy, siyosiy va savdo-sotiq aloqalarining rivojlanishi natijasida dabirlar, mirzolar guruhini tarbiyalab etishtirishga ehtiyoj tug'ildi, dabirlar tarbiyalab etishtiriladigan maskan dabiriston, ya'ni maktab deb atalar edi. Dabirlar davlat boshliqlari o'rtasidagi yozishmalarni amalga oshirganlar. Shuning uchun dabirlar yuqori darajadagi ilmga ega bo'lishi, ayniqsa, so'zning nozik ma'nolarini chuqur his qiladigan, yozma nutqi chiroyli, ravon va ifodali bo'lishi kerak edi. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida dabirlik kasbiga maxsus bob ajratishi bejiz emas. U yozadi: "Ey farzand, agar dabir va kotib bo'lsang, yozma nutqni yaxshi egallagil, xatni yaxshi yozgil va ko'p yozishni odat qilg'il, toki mohir bo'lgaysan... Har bir nomani yozsang, shirin istiorali va qisqa yozgil. Dabir idrok sohibi bo'lishi, kotiblik sirlarini bilishi, ramzli so'zlarni anglashi lozim".mKeyinchalik dabiriston ("dabiston" ham deyiladi) maktablarga birlashib ketdi. Maktab o'qituvchisi hamma vaqt jamiyatdagi eng hurmatli kishi bo'lib, ismiga ilmli, olim ma'nosini bildiruvchi "mulla" so'zini qo'shib aytishgan. Maktab bolasi ham o'tirishi, yurish-turishi, savollarga javob berishdagi xushmuomalaligi bilan boshqa bolalardan ajralib turgan. Shuning uchun ham ota-ona o'z farzandini katta mamnuniyat bilan maktabga bergan.

Eski maktablarning rasmiy dasturi bo'lmagan, arab harflarini o'rganib bo'lgach, "Qur'on" suralarini o'qish va yod olishga asosiy e'tibor qaratilgan. Maktabda kelguvsi hayot uchun zarur bo'ladigan kasb va hunar o'rgatilmagan. Rasmiy dastur bo'lmagach, bolalar ruhiyatiga mos keladigan darsliklar va o'quv qo'llanmalari ham, ular uchun uslubiy ko'rsatmalar ham bo'lmagan, har bir muallim o'zi bilganicha, o'z saviyasida an'anaga asosan dars bergan. Shunga qaramasdan, o'z ishiga tanqidiy qaraydigan, asrlar davomida o'zgarishsiz kelayotgan va hayotdan ancha orqada qolayotgan maktab sohasini tubdan qayta qurish kerakligini tushunib etgan ilg'or pedagoglar, o'z kasbining bilimdonlari, oz bo'lsa-da, hamma vaqt bo'lgan.

Vojid Ali o`zining “Matla' ul-ulum va majma' ul-funun” asarida o`qituvchi ega bo`lishi shart bo`lgan fazilatlar, o`qitish usullari (metodlari) haqida ancha keng ma'lumot beradi:

- o`qituvchi bilimdon, iste'dodli, go`zal xulqli, olijanob fazilatlar egasi bo`lishi, ta'lim-tarbiya qoidalaridan yaxshi xabardor bo`lishi kerak;

- o`qituvchi o`quvchilarni qo`rquvga soladigan darajada qo`pol bo`lmasligi, shu bilan birga, haddan tashqari muloyim ham bo`lmasligi kerak, aks holda bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko`rsatadi, o`qituvchi obro`siga putur etadi;

- o`qituvchi-muallim har bir darsni o`quvchilar zehniga mos holda bayon qilishi kerak;

- o`qituvchi o`tilgan darsni talabalar yaxshi tushunib olganlaridan keyingina yangi darsni tushuntirishga o`tishi kerak;

- o`qituvchi o`quvchilar o`tilgan darslarni qay darajada o`zlashtirganligini bilish uchun har kuni imtihon (har kuni so`rash, nazorat qilish ko`zda tutilyapti-U.D.) o`tkazishi kerak. Yaxshi o`zlashtirgan o`quvchilarga “ofarin”, “tahsin” e'lon qilib, uni rag`batlantirishi, dars tayyorlamagan, dangasalik qilgan o`quvchilarga tanbeh berishi, uyaltirishi kerak, toki ular ham ilg`or o`quvchilarga tenglashib olsinlar, yaxshi o`zlashtirishga harakat qilsinlar;

- she'riy asarlar, ma'naviy va lafziy san'atlarning ohangi-kuyi, ma'nosani talabalar o`zlashtira oladigan tarzda, tegishli misollarni tushuntirish orqali bayon etmoq kerak;

- ilm o`rganishga chanqoq bo`lgan qobiliyatli, iqtidorli o`quvchilarga doim e'tiborni qaratmoq kerak;

- o`qituvchi ta'lim-tarbiyadan asosiy maqsad o`quvchilarning ilm olishi va yomon odatlardan qutulishi ekanligini doimo nazarda tutmog`i kerak.

E'tibor bering, Vojid Alining talablari hozirgi zamon ta'lim-tarbiya, o`qituvchilarga qo`yiladigan talablarga hamohang. Chunki hamma zamonlarda ham barkamol insonni tarbiyalab voyaga etkazish mutafakkirlar diqqat -e'tiborida bo`lgan.

Vojid Ali o`quvchi-talabalarning vazifalari, burchlari nimalardan iborat ekanligini ham alohida ta'kidlaydi:

- o`quvchi-talaba muallim-ustoz huzuriga kelganda, odob bilan salomlashib, o`z o`rnida o`tirishi, kitob mutolaasi bilan mashg`ul bo`lishi kerak. Bu jarayonda u o`qishdan boshqa har qanday xayollarni o`zidan uzoqlashtirishi lozim;

- o`quvchi mutolaa qilayotgan asarni chuqur o`rgansin, o`zlashtirsin;

- o`qituvchi o`quvchidan biror masalani so`rasa, o`quvchi darhol o`qituvchi oldiga kelib, salomlashib, odob bilan o`tirsin va o`qituvchi o`rgatgan tarzda masalani oydinlashtiruvchi javob bersin, agar tushunmagan bo`lsa, o`qituvchidan odob bilan so`rab, aniqlab olsin. O`qituvchi tushuntirayotgan vaqtda ularni xotirasida mahkam joylashtirsin;

- o`quvchi o`qituvchi so`ragan masala yuzasidan javob berib, o`zi tushunmaganlarini o`qituvchidan aniqlab olgach, yana o`z o`rniga kelib o`tirsin, mutolaaga mashg`ul bo`lib, takror-takror o`qib, mavzuni mukammal o`zlashtirsin.

Agar o`quvchi-talaba aytilganlarga amal qilsa, unda u tez orada o`z maqsadlariga erishadi.

1880-1890- yillarga kelib, o`lkaga kapitalistik munosabatlarning kirib kelishi va milliy burjuaziyaning vujudga kela boshlashi eski ta'lim-tarbiya tizimiga ham milliy ziyolilar o`rtasida tanqidiy munosabatni vujudga keltirdi. Bu hol mustamlakachi ma'murlarni tashvishga sola boshladi, eski maktablarni nazorat ostida saqlash, o`lkaga kirib kelayotgan yangiliklardan "muhofaza" qilish maqsadida Turkiston o`quv ishlari boshqarmasi (bu boshqarma 1875 yilda Turkiston general-gubernatorligi tarkibida tuzilgan) qoshida mahalliy maktab va madrasalar bo'yicha nazorat komissiyasi tashkil etilib, uni boshqarish V.Nalivkinga topshirildi, bu komissiya 1898 yildan oblast va uezd ma'muriyati ixtiyoriga o`tkazildi. V.P.Nalivkin 1901 yilda Toshkent shahridagi eski maktablarning ahvoli haqida quyidagilarni yozadi: "Eski maktablar uchun qurilgan maxsus binolar deyarli yo`q. Aksar maktablarda mashg`ulot masjidlarda yoki to`g`ridan-to`g`ri masjidlarning ayvonida yoki masjidning hujrasida o`tkaziladi. Chunonchi, Toshkentning eski shahar qismidagi 142 ta maktabdan 109 tasi masjidlarda, 27 tasi domlalar uyida, 5 tasi mozorlar huzurida va qorixonalarda bo`lib, faqat bitta maktab maxsus qurilgan binoga ega".

Eski maktablar sanitariya-gigienaning oddiy talablaridan ancha yiroq edi. O`quvchilar, asosan, bo`yra yoki poxol ustiga to`shalgan sholcha yoki kigiz ustida o`tirib, dars o`qir edilar. Xonaning to`rt tomoniga taxtadan yasalgan uzun-uzun "eshak" (skameyka) qo`yilgan bo`lib, uning ustiga yozish uchun kerakli jihozlarini, kitoblarini qo`yib o`qiganlar. O`quvchilar o`quv bosqichlariga qarab: bir tomonda "taxtaxonlar", bir tomonda "abjadxonlar", bir tomonda "haftiyakxonlar", to`rda ko`rpachada domla o`tirgan. Bolalarni maktabga necha yoshdan va qachon qabul qilish, o`qish muddati, dars soatlari qat'iy belgilab qo`yilmagan, umuman, dars jadvali bo`lmagan, o`quvchilar yoshiga, o`qish darajasiga qarab guruhlariga (sinflarga) bo`linmagan, bu hol ta'lim-tarbiya saviyasini yanada pasaytirgan. Maktabda jismoniy jazo ta'lim-tarbiya usullarining asosiy turlaridan biri bo`lgan. "Eti-sizniki, suyagi-bizniki" xalq iborasining paydo bo`lishi eski maktablar faoliyati bilan bog`liq.

Eski maktablarning maxsus binolari bo'lmagan: asosan masjid va madrasalar, xonaqohlar qoshida xona ajratilgan, ba'zan madrasani bitirganlar o'z uyida maktab ochgan, ba'zi hollarda o'z hovlisida maktab uchun hashar yo'li bilan maxsus bino qurgan domlalar ham bo'lgan. Bunday xayrli ishlarda xalqimizning saxovatli, ma'rifatli boylari sidqidildan yordam berganlar. Ta'kidlash kerakki, o'z uyida maktab ochgan e'tiborli domlalar o'qish sharoitini iloji boricha yaxshilashga harakat qilganlar. O'qituvchilik kasbini dildan sevuvchi, kelajak avlod tarbiyasini muqaddas biluvchi, izlanuvchi pedagoglar hamma vaqt xalq e'tiborida bo'lganlar. Afsuski, bunday domlalar kam bo'lgan.

Dars eski maktabda quyosh chiqishi bilan boshlanar, peshinda (tahminan 12-13 larda) o'quvchilar uylaridan olib kelgan eguliklarni tanavvul qilar, maktabga yaqinroq yashovchilar uylariga borib peshinlik qilar, bir oz dam olar va yana o'qishni davom ettirar edilar. O'qituvchilar bolalar bilan hech qanday harakatli o'yinlar, didaktik o'yinlar mashq qildirmas edilar, ko'p maktablarda jismoniy tarbiya, estetik tarbiya masalalariga e'tibor berilmagan, ertalabdan to o'qish tugaguncha bir joyda qadalib o'tirib, berilgan vazifani boshini tebratib o'qish yoki takrorlash bilan band bo'lganlar.

Bolalar ruhiyatini yaxshi biladigan domlalar har 1,5-2 soatda tanaffus e'lon qilgan, vazifani yaxshi bajarib kelgan o'quvchi "ofarin", "barakallo" deb rag'batlantirilgan, dangasalik qilganlarga tanbeh berilgan. Maktabda juma kuni o'qish bo'lmagan, haftaning payshanba kuni odob-axloq darsi o'tkazilgan. Bu dars asosan "Shariatul-iymon" kitobi asosida olib borilgan.

Eski maktablarning asosiy vazifasi musulmon axloqini o'quvchilar ongiga singdirish, shu bilan birga, ba'zi o'quvchilarni ta'limning ikkinchi-oliy bosqichi bo'lgan madrasaga kirishga tayyorlash edi. Maktabni bitirganlik haqida hech qanday hujjat berilmagan. Eski maktablar davr talablaridan qanchalik uzoq bo'lmasin, o'quvchilar xotirasini, yodlash qobiliyatini ancha rivojlantirgan.

Qizlar maktabi. Masjid va xonaqohlar qoshida ochilgan maktablarda faqat o'g'il bolalar o'qitilgan. Qiz bolalar o'z davrining o'qimishli ayollari tomonidan o'z uyida ochilgan maktablarda o'qitilgan. Ayol muallimani o'lkaning turli hududlarida "otinoyi", "otinbibi", "bibiotin", "bibihalifa" deb ataganlar. Qizlar maktabi o'g'il bolalar maktablariga nisbatan ancha kam bo'lgan, ko'p hollarda maktabdorlarning, imomlarning xotinlari maktabdorlik qilgan. Qizlar maktabi faoliyati haqida K.E.Bendrikov "Turkistonda xalq maorifi tarixidan ocherklar" asarida quyidagilarni yozadi: "Qizlar ishqiy maktublarga berilmasinlar deb, qizlar maktabida yozuvga o'rgatilmagan". Bu so'zlarga ishonib bo'lmaydi. O'zbek xalqi-o'tmishda eng ko'p shoirlar etishtirgan xalq, agar yozuvga o'rgatilmaganda edi, podshohlar saroyiga mansub bo'lgan Gulbadanbegim, Zebunnisobegim, Nodirabegim kabi so'z san'atkorlarini qo'ya bering, XIX

asrning o`zida Uvaysiy, Mahzuna, Dilshodi Barno, Muazzamxon, Muattarxon, Anbar otin, Qamarniso, Nozimaxon kabi o`nlab mashhur shoirlar qaerdan etishgan?

Atoqli zullisonayn shoira Dilshodi Barno 50 yildan ortiq muallimalik qilib, qizlarga xat-savod o`rgatdi, tab'i nazm qizlarga she'riyat ilmidan dars berdi: "Hamdam va hamsuhbatlarim zehnli sohibinazm yosh shoirlar bo`lib, 51 yil maktabdorlik qildim. Maktabda a'lo va o`rta o`quvchilardan doimo 20-30 qiz ta'lim olar edi. 891 qizni savodli qilib chiqardim. Bulardan yaqin to`rttdan bir qismi tab'i nazmi bor oqila qizlar edi... Anbaroy sakkizdan o`n to`rt yoshgacha adab ta'limiga mashg`ul bo`ldi. Bu sakkiz yashar qizcha yoshligiga qaramay, hazrat Navoiy g`azaliyotlarini o`rganishga behad qiziqardi. Umidim borki, qizcha katta shoira bo`lg`usi".

Ma'naviyatimiz tarixidan bunday misollarni ko`plab keltirish mumkin.

Qorixona - o`ziga xos o`quv muassasi. O`qish-yozish malakasini hosil qilgach, o`n yoshdan yodlash qobiliyati kuchli hushovoz yoshlar ko`p hollarda qorixonalarda o`qishni davom ettirganlar. Unda asosiy e'tibor Qur'oni karimni yodlash va qiroat bilan o`qishga qaratilgan. Qorixonada o`qish 3-4 yil davom etgan va o`ttiz pora Kalomullohni yod olgan murattab qorilarni-hofizlarni tarbiyalab etishtirgan. Ko`p qorixonalarda o`zoqdan kelganlarga yotib o`qish uchun hujralar bo`lgan. Qur'on tilovatida asosiy e'tibor ovoz, tajvid (qiroat usullari), tarannumga qaratilgan. Shuning uchun ham qorixonalarda qiroati kuchli bo`lgan hushovoz qorilar-hofizlar dars berganlar. Talabalar dastlab xotira zehniga qarab guruhlariga ajratiladi: ba'zi bolalar bir kunda bir varaq, ba'zilari bir bet, yana ba'zilari yarim bet yodlashi mumkin bo`lgan. Xotirani rivojlantirish uchun vazifa kun sayin oshirib borilgan. Qorixonalarda quyidagi gapga amal qilingan: "Addarsu harfun, attakroru alfun", ya'ni "Bir marta dars olsang, ming marta takror qil". Katta tajribaga ega bo`lgan domlalar yod olgan har bet yoki oyat va surani 250-300 marta takrorlashga majbur qilganlar. Shuning uchun talabalar qorixonalarda jum'adan tashqari har kuni ertalabdan kechgacha yod olish bilan mashg`ul bo`lganlar. Qori domlalar vaqti-vaqti bilan qiroat qoidalarini – tajviddan dars berganlar, yodlash uchun necha marta takrorlash kerakligini ham ta'kidlaganlar. Talabalar qorixonani xatm qilgach, qoidaga binoan xatmi nashas, ya'ni o`ziga xos imtihon o`tkazilgan. Bu shunday imtihonki, unda o`sha shahar yoki hududning nomdor qori-hofizlari, domlari ishtirok etganlar va talabani Kalomullohni qay darajada batartib yod olganini, uning qiroatini baholaganlar. Xush ovoz va qiroati nihoyatda chiroyli bo`lgan talabaga qorii qurro (qorilar qorisi) unvoni berilgan. Shundan keyingina imtihon hay'ati yosh qoriga fотиha bergan va u xalq, din yo`lida xizmat qilishga kirishgan yoki madrasada o`qishni davom ettirgan

Daloyilxona - dalillar ma'nosini bildirgan maxsus o`quv muassasasi bo`lib, unga ibtidoiy maktabni tugatgan, madrasada ta'lim olgan yoki ta'lim olayotgan, Qur'oni karimni o`qishda va tushunishda ancha muvaffaqiyatga erishgan yoshlar e'tiborli din peshvolarining maxsus tavsiyasi

bilan qabul qilingan. Daloyilxonaga o`qishga kirish uchun talaba ma'nan va jisman, hatto kiyimlari ham pok bo`lishi, bironing haqidan hazar qilishi, Qur'on o`qish qoidalarini, talaffuzini – tajvidni mukammal bilishi talab etilgan. Bulardan tashqari, tasbeh, duo ma'nolarini tushunishi, qacda qaysi biri o`qilishi kerakligini mumkin qadar to`la bilishi kerak bo`lgan. Shuning uchun daloyilxonalar u darajada ko`p bo`lmagan. Daloyilxonada XV asr musulmon olamida katta e'tibor qozongan aqidashunos olim Muhammad ibn Sulaymon Juzuliyning Muhammad payg`ambar va uning sahobalari, avliyolar hayoti haqida hikoya qiluvchi rivoyatlar, madhiyalar to`plami “Daloyil ul-hayrot” o`qitilgan. Asar arab tilida yozilgan bo`lib, qobiliyatli, xotirasi kuchli o`quvchi-talabalar uni 3-4 oyda yod olganlar, ba'zan yodlash bir yilga ham cho`zilgan. Asar etti qismdan iborat bo`lib, har bir qism haftaning ma'lum bir kunida o`qishga mo`ljallangan. Daloyilxonani bitirganlar ancha e'tiborga ega bo`lib, islom dini targ`iboti bilan shug`ullanganlar, amri ma'rufda voizlik ham qilganlar.

## **1.2. Eski maktabda o`qish va yozishga o`rgatish usullari**

Dastlabki bor maktabga borgan yosh bolaning eng birinchi ishi harf-yozuv tanimoq, o`qishga o`rganmoqdir. Chunki bular uning boshqa kattaroq narsalarni o`rganishiga yo`l ochadi. Ammo bu bolalar endi mehribon ona quchog`idan chiqib, olamning jiddiyat eshigiga oyoq bosadilar. Bu vaqtda ular ko`pi bilan 5-6 yoshlarda bo`ladilar, hissiyotlar tamoman ular ustidan hokimlik qiladi: bunday sharoitda o`qituvchi ularga qiziq-qiziq hikoyalar aytib, jiddiyatni oz bo`lsa-da yumshatishi, bolalarda maktab degan jiddiyat olamiga muhabbat uyg`otishi kerak bo`ladi.

Bolalarni o`qishga o`rgatishning mashhur uch usuli bor: usuli tahajji (usuli hijo), usuli maddiya, usuli savtiya. Eski mahalliy maktablarda o`qishga o`rgatishning usuli tahajji-usuli xijo metodi qo`llangan. Bu usul eng qadimgi, shu bilan birga, eng qiyin usul bo`lib, Ovrupoda XU111 asr oxirida bu usuldan voz kechishgan, Turkiston eski maktablarida XX asrning 20-yillarigacha davom etgan. Usuli hijoda alifbo o`rganish uch bosqichda olib boriladi. Birinchi bosqichda alifbo tartibi bo`yicha harflarning nomlari o`rgatiladi. O`qituvchi bir harfni ko`rsatib, uning nomini aytadi, o`quvchilar o`qituvchi ortidan takrorlaydilar, undan keyin ikkinchi harfni ko`rsatib, nomini aytadi, o`quvchilar takrorlaydilar. Shundan keyin o`qituvchi uzunligi 30 sm, eni 15 sm bo`lgan, chiroyli randalangan taxtaning bir tomoniga 28 ta arab va 4 ta fors tiliga mansub bo`lgan 32 ta harfning alohida yozilish shaklini alifbo tartibida yozib beradi va o`quvchi “alif, be, te, se, jim, he...” deb, harflarning nomlarini yod ola boshlaydi. Alifbo o`qishdagi bu bosqichni “taxtaxonlik” deyiladi. Bu jarayon 5-6 oy davom etadi, lekin o`quvchi taxtachadan harf ifodalagan biror tovushni topib bera olmaydi. Ushbu “taxtaxonlik” davrida o`quvchilarga

“Haftiyak”dan kichik-kichik suralar yodlatib boriladi, ya'ni o`qituvchi surani yoddan o`qiydi, bolalar baravar o`qituvchidan keyin takrorlaydi.

Ikkinchi bosqich-hijo (bo`g`in) hosil qilish. Bu masalada o`quvchilar ancha qiynaladilar. Avval bir hijoni tashkil etgan harflarning ismlari aytiladi, so`ng shu harflardan yasalgan hijo o`qiladi.

Ushbu bosqichda zer, zabar, pesh, sokin, tashdid, hamza kabi harakatlar ham o`rgatiladi.

Uchinchi bosqichda so`zlarni o`qishga kirishiladi. Avval so`zning birinchi hijosini tashkil etgan harflarning nomlari aytilib, keyin u hijoning o`qilishi aytiladi. Shu tarzda ikkinchi, uchinchi va boshqa hijolar o`qiladi. Ammo avvalgi hijolar esdan chiqmasligi uchun har bir yangi hijoni o`qish oldidan ular takrorlab boriladi. Bu usulning o`ta qiyinligi ko`zga yaqqol tashlanib turadi. Bunda harflar alif, be, te, se, kof va hatto harakatlarning nomlari asos qilib olinadi, asosiy masala-so`zni hosil qiluvchi tovushlar o`quvchilarga tushuntirilmaydi, natijada o`quvchilar o`qituvchining so`zlarini takrorlab, harflar ifodalovchi tovushlarni tushunmagan holda ko`p vaqtlarini zoe' ketkazadilar.

O`quvchilar ko`p hollarda “Haftiyak” suralarini o`qiyotgan vaqtlarida, harflarni qo`shib mustaqil so`z hosil qilib o`qimaydilar, balki o`qituvchisidan eshitganlarini takrorlaydilar. Shuning uchun ham maktabda ancha durust o`qigan o`quvchilar ham biror yangi kitob qo`llariga tushsa, o`qiy olgan emaslar. Bo`g`inlarni qo`shib so`z hosil qilishni eski maktablarda abjad bilan bog`lab o`rganganlar. Abjad arab alifbosi tartibida 28 harfni o`z ichiga olgan va har bir harf ma'lum sonni bildiruvchi shartli so`zlar: abjad, havvaz, xutti, kalaman, sa'ufas, qarashat, sahhaz, zazag`. Masalan, “abjad” so`zining hosil qilinishini muallim shunday o`rgatadi: alifga zabar qo`yib, bo qo`shilsa ab; jimga zabar qo`yib dolga qo`shilsa, jad; ab va jad qo`shilishidan “abjad” hosil bo`ladi.

Abjaddan keyin “haftiyak” o`rgatilgan. “Haftiyak”da 13-14 kichik-kichik suralar jamlangan bo`lib, “Qur'on” ni o`qish va yodlashdagi bir bosqichdir. Bunda muallim “Qur'on” suralaridagi so`zlarni to`g`ri talaffuz qilishga, ba'zi bir yodlash qobiliyati kuchli bo`lgan, chiroyli tovushga ega bo`lgan o`quvchilarni qiroat bilan ta'sirli o`qishga o`rgatgan. Ma'lumki, yosh bolalarda xotira, yodlash qobiliyati ancha kuchli bo`ladi. Shuning uchun “Haftiyak”ni hijjalaб ы=ишдан кыра =ироат билан ы=ийдиган домла yoki qorilardan eshitib yodlash ancha osondir. Ko`p maktablarda muallimlar “Haftiyak”dagi ba'zi suralarni “Qur'on”ni o`qish davomida o`rganadilar, aslida “Haftiyak”-“Qur'on”ning ettidan bir qismidir. Umuman, “Qur'on”dan suralar yod olish o`quv jarayonining hamma bosqichlarida faol davom etadi.

“Haftiyak” va “Qur'on”dan keyin “Chor kitob” o`qitilgan. “Chor kitob” X-XII asrlarda islom dini ruknlari fors-tojik tilida nazm va nasrda ko`proq Imom Ismoil al-Buxoriy, Farididdin Attorning so`fiyona asarlari asosida tuzilgan. Unda diniy aqidalar qisqa-qisqa savol-javob tarzida berilgan va o`quvchilar javoblarni yod olishgan. Bu kitobni o`rganishdan asosiy maqsad musulmonchilik qonun-qoidalarini puxta egallash, namoz o`qish, tahorat qilish, zakot berish, ro`za tutish va shariatning boshqa qoidalarini puxta egallash va amal qilishga o`rgatish edi. Ammo ushbu “Chor kitob”ni o`qish va o`rganish jarayonida o`quvchilar katta qiyinchiliklarga duch keladilar. “Qur'on” xati – nasx xatiga birmuncha oshno bo`lgan bolalar endi birdan nasta'liq xatiga duch keladilar. Bu yozuvda ko`p hollarda harakatlar (zer, zabar, pesh, sukun, hamza, tashdid va boshqalar) qo`yilmaydi, shu bilan birga, yozilishi ham ancha boshqacha. Ikkinchi qiyinchilik bu kitobning katta qismi fors tilida bitilganligidir. Shuning uchun ham o`quvchilar hatto 15-20 baytni o`qish va yod olishga oylab vaqt sarflaganlar. “Chor kitob”ni o`qishda bolalarning fors tilini, nisbatan bola uchun yangi bo`lgan “nasta'liq” xatini bilish-bilmasligi muallimni qiziqtirgan emas. O`quvchilar asardagi baytlarni o`qituvchidan keyin, ba'zan baravar baland ovoz bilan takrorlayverganlar, natijada baytlar o`qishni bilmaydiganlarga ham yod bo`lib ketgan.

“Chor kitob”ni xatmi kutub qilgandan keyin o`quvchi ibtidoiy maktabning so`nggi bosqichiga-forsiy va turkiy adabiyotning buyuk namoyandarlari Xo`ja Hofiz, Navoiy, Bedil, Fuzuliy, So`fi Olloyor asarlarini o`qishga o`tadi. Ushbu bosqichda bolalar go`zal san'at-so`z san'atining sirli olamiga qadam qo`yadilar, ko`plab murg`ak qalblar she'riyatga bir umr oshno bo`lib qoladi. Ular Navoiy va Hofiz g`azallarining, Bedil ruboiylarining falsafiy mohiyatini, Mashrab va So`fi Olloyor she'riyatidagi ishqi zohiriy va ishqi botiniy masalalarini tushunib etmasalar-da, she'riyatdagi go`zallikni, musiqiylikni qalban his qiladilar. Islom e'tiqodining bosh kitobi “Qur'oni karim” badiiyatning ham go`zal namunasi. Murg`ak bolalikdan bu muqaddas kitobning suralari, oyatlari ohangi, ularda saj' san'atidan keng foydalanganligi o`quvchilarning shuurini, qalblarini rom etgan. Sharq adabiyotida she'riyatning sarbaland martabasi shundan bo`lsa, ajab emas. Ibtidoiy maktablarda boshlangan she'riyat darslari madrasalarda Navoiyxonlik, Fuzuliyxonlik, Bedilxonliklarda davom etadi. Musulmon Sharqida she'riyat maktab orqali xalq ommasi ichiga kirib borgan va og`zaki hamda yozma nutqini go`zallashtirgan.

Ammo shuni unutmaslik kerakki, eski mahalliy maktablar davr talablaridan ancha orqada qolib ketgan, maktabda olgan bilimlar bolalar uchun hayotda hech bir asqotmas edi. Chunki mohiyatni tushunmay, quruq yodlash asosida olingan bilim maktabni tugatgach, tez orada xotiradan ko`tarilar, hatto o`qish va yozishni ham unutib yuborar edilar. Asosiy masala shundaki,

o`quvchi matnni ongli, ravon, ifodali o`qigandagina uning mazmuniga, mohiyatiga chuqurroq kirib boradi va bilim ko`nikmalarini hosil qiladi. Ikkinchidan, bolalar hayotda o`z bilimlarini mustahkamlab borishlari uchun ona tilida o`quv adabiyotlar yo`q, bo`lsa ham juda kam miqdorda yaratilar va nashr qilinar edi. Bu esa xalq o`rtasida savodsizlik doirasini yanada kengaytirib borar edi. Ovrupo mamlakatlari ilm-fan, texnikaning eng yuqori bosqichlariga ko`tarilayotgan bir paytda eski musulmon maktablarida bu fanlarni tasavvur ham qila olmas edilar. Pedagogikadagi bu inqirozni mustamlakachilar yanada chuqurlashtirishga, mutaassiblikni avj oldirishga katta e`tibor berdilar va ko`p hollarda bunga erishdilar ham.

Odatda, eski maktablarda o`qishga yangi kelgan yosh bolalar bilan birga 3-4 yil davomida o`qib kelayotganlar bir vaqtda, bir xonada o`qitilar edi. Ko`pincha muallim katta yoshdagi o`quvchilar bilan dars olib borishni ma'qul ko`rar, yangi kelgan murg`ak bolalarni nisbatan yaxshiroq o`zlashtirgan o`quvchiga-xalfaga topshirib qo`yar edi. Bu ham bolalarning maktabga qiziqishining, ulardagi tug`ma qobiliyatning so`nishiga, yo`q bo`lishiga sabab bo`lar edi. Bolalarning og`zaki va yozma nutqini o`stirish, lug`at boyligini yil sayin oshirib borish, fikrlash doirasini kengaytirishdek pedagogikaning muhim masalalariga butunlay e`tibor bermas edilar.

Eski maktabdorlar maktabdan tashqari ishlar bilan umuman shug`ullanmaganlar va ulardan bunday tarbiyaviy ishlar talab qilinmagan ham. Kim ham talab qilardi, eski mahalliy maktablar davlat e`tiboridan, ta'minotidan butunlay chetda bo`lsa. Lekin shunga qaramasdan, ba'zi bir mahalliy maktabdorlar ham bolalarning maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlariga e`tibor berganlar. Bola tarbiyasini o`zi uchun sevimli va muqaddas ish deb bilgan iste'dodli muallim-pedagoglar bolalarni tabiat qo`yniga olib chiqqanlar. Bunday ishlar ko`proq navro`z kunlari, gul bayramlari munosabati bilan amalga oshirilgan. O`quvchilar muallim rahbarligida bir kunlik oziq-ovqat yoki osh masallig`ini olib, tabiatning go`zal go`shalariga borishgan. Bunday ishlarda faqatgina dam olish vazifasini o`z oldilariga qo`ymay, bu sayl yoki sayohatdan olgan taassurotlarini qisqacha og`zaki va yozma bayon qilib berish vazifasi o`quvchilarga topshirilgan. Savodxonligi mukammal bo`lgan yuqori bosqich o`quvchilari ancha chiroyli insho yoki she'r yozishga erishganlar. Bunday tadbirlar o`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ham ahamiyati katta bo`lgan.

Eski maktablarda o`qishga o`rgatish bilan yozuvga o`rgatish uzviy bog`liq ravishda olib borilmagan. Buning ustiga, bolalarni yozuvga o`rgatish bilan hamma maktablarda ham shug`ullanilmagan. Chunki ba'zi muallimlar yozuvni bilmaganlar. Yozuvga o`rgatish o`qishga o`rgatishning so`nggi bosqichi-buyuk sharq mutafakkirlari asarlarini o`rganib bo`lganlaridan keyingina boshlangan. Yozuvni ancha mukammal biladigan muallimlar yozuvga o`rgatishda

to'rt muhim masalaga alohida e'tibor berganlar. Bu to'rt masala arab yozuvining o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqadi, ya'ni arab alifbosidagi harflar qo'llanish o'rniga qarab to'rt xil shaklga ega: 1. Alohida yozilishi. 2. So'z boshida yozilishi. 3. So'z o'rtasida yozilishi. 4. So'z oxirida yozilishi.

Arab yozuvining bu xususiyati uning boshqa yozuvlarga nisbatan ancha murakkabligini ham belgilaydi. Xat yozishga kirishishdan oldin shakldosh yoki shaklan bir-biriga yaqin harflar guruhlashtirilgan. Chunki bunday harflarning alohida, so'z boshida, o'rtasida va oxiridagi ko'rinishlari ham o'xshash bo'ladi. Masalan: \_\_\_\_\_ yoki \_\_\_\_\_ kabi harflar hamma o'rinlarda ham faqat nuqtalari bilan farqlangan. O'qituvchi yozuvga o'rgatishning birinchi bosqichida alifbo tartibidagi harflarni alohida, nisbatan yirik shaklda chiroyli qilib yozib bergan. Buni husni xatda sarxat-mufradot (yolg'iz, yakka holda yozish) deb atalgan. Mufradot mashqidan keyin harflarni qo'shib yozish boshlangan. Murakkabot deb ataluvchi bu bosqichda o'qishda qo'llangan usuli hijo metodiga asoslangan holda harflarning nomlarini aytib, bir-biriga qo'shganlar. Ushbu bosqichda muallim o'quvchilar diqqatini harflarning o'rniga qarab oladigan shakllariga qaratadi. Bu bosqich yozuvga o'rgatishdagi eng murakkab jarayondir. Shuning uchun ham bu jarayon 2-3 yil davom etgan.

Harfni qo'shib yozish mashqi-murakkabot bosqichi tugagach, muallim o'quvchilarni muqattaot bosqichiga o'tkazgan. Muqattaot-qit'a, parcha ma'nolarini bildirib, she'riy parchalar, qit'alar, baytlar, ruboiylar ko'chirib yozish mashq qildirilgan. Xat yozishiga o'rgatishdek mashaqqatli bosqich tugagach, husnixatga qobiliyati bor o'quvchilar maxsus xattotlar qo'lida husnixat sirlarini o'rganganlar, ko'proq kitoblardan namunalar ko'chirib yozish bilan shug'ullanganlar. Buning uchun ulug' shoir va pedagog Shermuhammad Munis Xorazmiy (1778-1829) ning husni xat va savod ta'limiga bag'ishlangan "Savodi ta'lim" asarini chuqur o'rganganlar. Bu asar XX asr boshlarida "Savodi ta'lim ma' guldastai rayohin" nomi bilan bir necha qatla bosmadan chiqarilgan edi.

Hamma vaqt ham savodga o'rgatish maktab ta'limining eng murakkab va mehnattalab, shu bilan birga, asosini tashkil qilgan. Shuning uchun ham atoqli mutafakkir Shermuhammad Munis o'quvchilarni tezroq savodli qilishning oson yo'llarini izlagan Asarda muallif qamish qalam (asosiy yozuv quroli)ni qanday tayyorlash-yo'nishdan tortib, harflarni yozish qoidalarigacha she'riy shaklda bayon qiladi, arab alifbosidagi harflarning yozilish shakllarini mahorat bilan ko'rsatadi. Uning "Savodi ta'lim" asari bilan chuqurroq tanishar ekanmiz, muallifning inson ma'naviyatida yozuvning tengsiz ahamiyatini teran idrok etganining va bu murakkab ishni o'quvchilar uchun osonlashtirishga qat'iyat bilan kirishganining guvohi bo'lamiz:

Bilganga surub qalamni har yon,  
Ta'lim ishin aylar erdim oson.  
Lekin ko'ngul ichra erdi bu kom,  
Qilsam raqame ulumi arqom.  
Andin talab ahli bo'lsa mahzud,  
Ta'lim fanin qilurda mahfuz...  
Har so'zni ko'nguldin o'ldi mavjud,  
Xat bo'lmasa, bo'lg'ay erdi nobud.  
Qur'onki, erur Xudo kalomi,  
Xat ichra ayon bo'lur tamomi.

Ushbu asar XX asr boshlarida “usuli qadim” va “usuli jadid” maktablarida savod va husnixatga o'rgatishda asosiy qo'llanma bo'lgan.

Farg'ona vodiysining Namangan, Andijon, Qo'qon va Marg'ilon shaharlari maktablarida husnixat va savodxonlikni ko'proq Ishoqxon Ibratning “San'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy” asari orqali o'rganganlar. Bu haqda asarga muharrirlik qilgan pedagog, dramaturg Oxunzoda Abdulrauf Shahidiy quyidagilarni yozgan edi: “Qobiliyat va salohiyatlari qaviy, zakovat va fatonatlari joyida bo'lgan g'ayratlik talabalar va yosh muallimlarimiz biron qit'ai hol xat namunasiga noil bo'lsunlar. Boqiy duo umid qilib, yangi va eski usul maktab va madrasalarimiz va ahli kitobat va xattotlarimizga ta'lim va ta'limi kitobot xususidagi birinchi hadyamizni ojizona taqdim ayladuk. Agar jolibi diqqat bo'lursa, oz va ko'p xohlaguvchilar To'raqo'rg'onda “Matbaai Ishoqiya” deb yozsalar, har nusxasini 25 tiyindan hisoblab, tavaqufsiz yuborilur”.

Xulosa qilib aytish kerakki, an'anaviy mahalliy maktablar 3-4 asr davomida jahon taraqqiyotidan butunlay uzilib qoldi, ta'lim-tarbiya tizimi parokandalikka yuz tutdi. Bu holni islom dini qonunlarini, Qur'oni majid ahkomlarini buzib talqin qiluvchi mutaassiblar, buning ustiga mustamlaka sharoiti yanada chuqurlashtirdi. Shularga qaramay, an'anaviy mahalliy maktablar islohoti, o'qitish tizimini zamonga moslashtirish uchun harakatlar hamma vaqt ulug' mutafakkirlar diqqat-e'tiborida bo'lgan.

### **1.3. Madrasalarda ta'limning tashkil etilishi va o'qitish usullari**

Ma'lumki, madrasalar qadimdan oliy o'quv yurti maqomida bo'lgan. Ularning paydo bo'lishi o'qitishda yangi usullarning vujudga kelishi bilan uzviy bog'liqdir. VIII-IX asrlarda o'quvchilar, asosan, masjidlarda o'qitilar, ularda musulmon dini aqidalari, islomiy ilmlar (naqliy

ilmlar) bilan bir qatorda aniq fanlar (aqliy ilmlar) o`qitilar edi. Talabalarga o`qitish jarayonida aytib turilgan, ular yozganlar. Bu usul “imlo” usuli deb yuritilgan. X asrdan boshlab o`quv muassasalarida “imlo” usulidan voz kechildi. Shveysariyalik arabshunos olim Adam Mets bu haqda quyidagilarni yozadi: “O`qitishda yangi usullarning vujudga kelishi, o`z navbatida, yangi turdagi o`quv muassasalarining paydo bo`lishiga sabab bo`ldi. Avval aytib turib yozdirish, ya'ni “diktovka” (“imlo”) usuli o`qitishda eng yuqori daraja hisoblangan bo`lsa, X asrdan boshlab, “tadris” (“sharh”, “izoh”) usuli etakchi bo`lib qoldi. “Tadris” usuli o`sha davrda qabul qilingan ilmiy munozara bilan uzviy bog`liq edi, masjidlar esa munozara uchun muvofiq emas edi. Natijada, bu davrga kelib madrasa vujudga keldi”

“Usuli tadris” ko`proq madrasalarda qo`llangan. Natijada, yangicha o`qitish usullari: munozara, tafsir, sharh usullari (Evropada germeneytika tahlili-U.D.) talablariga javob beradigan madrasa vujudga keldi va masjiddan ajralib chiqdi, maktablar esa masjidlarda qoldi. Madrasalar uchun maxsus binolar qurila boshlandi. Musulmon shaharlaridagi eng yirik madrasalar amirlar, shohlar, xonlar, beklar, yirik mulkdorlar, shariat-din peshvolari tomonidan qurdirilgan, sharq me'morchilik san'atining eng go`zal an'analari madrasalarda o`z ifodasini topgan.

Samarqandagi Ulug`bek, Sherdor, Tillakori; Buxorodagi Mir Arab, Abdullaxon; Toshkentdagi Ko`kaldosh, Xivadagi Ollohqulixon, Islomxo`ja madrasalari va minoralari musulmon sharqi me'morchilik san'atining eng noyob namunalaridir. Madrasalar va masjidlarga yopishtirib nihoyatda baland va salobatli minoralar ham qurilgan. Mullavochchalar yashab o`qishi uchun 2-4 kishilik hujralar, mudarrislar, mutavalli, masjid imomi, muazzin uchun xona va bir necha darsxonalar mavjud bo`lgan. Davlat ahamiyatiga molik katta madrasalar qoshida boy kutubxona, qiroatxona, ularning ishini nazorat qiluvchi lavozim ham bo`lgan. Masalan, Buxorodagi Mir Arab madrasasida yuzdan ortiq talaba yashashi uchun hujralar bo`lgan. Davrning eng ulug` ulamolari uchun ham madrasadan bir xona (hujra) berilgan. Buyuk mutafakkir Ahmad Donishning Mir Arab madrasasida, xorazmlik shoir, tarjimon Muhammad Yusuf Rojiyning Ollohqulixon madrasasida o`ziga alohida hujrasi bo`lgan.

Samarqanddagi Ulug`bek madrasasi Movarounnahr va Xurosonning eng e'tiborli madrasalaridan biri bo`lgan. U ikki qavatli bo`lib, 55 nafar hujrasi bo`lgan. Har bir hujra 2 talaba uchun mo`ljallangan bo`lib, uch xonadon: yotoqxona, darsxona, qaznoq (oziq-ovqat va boshqa mahsulotlar uchun)dan iborat bo`lgan. Umuman, Ulug`bek madrasayi oliysida 100 talaba ta'lim olgan. Talabalarga Samarqandning deyarli hamma ulug` olimlari: Qozizoda Rumi, Mirzo Ulug`bek, Shamsiddin Muhammad Havofiy, g`iyosiddin Jamshid Koshiy, Alovuddin Ali Qushchi aniq fanlar (ilmi aqliya) dan dars berganlar va Ulug`bek rasadxonasida ham ilmiy-tadqiqot ishlari olib borganlar. Umuman, Ulug`bek madrasasi bilan rasadxona faoliyati o`rtasida

yaqin aloqa bo'lgan. Mantiq, fiqh, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tafsir, hadis ilmlaridan Fazlulloh Abulaysiy, Abulqosim Samarqandiy, Abdurahmon Jomiylar dars berganlar.

O'tmishda davrning ulug' kishilari: davlat arboblari, shariat-din peshvolari, olimlar madrasalardan etishib chiqqanlar. Demak, madrasa va mudarrisning e'tibori davlat oldida, xalq o'rtasida juda yuqori bo'lgan, madrasani hatmi kutub qilish va sanad (shahodatnoma) olish hamma talabalarga nasib etavermagan. Buning ustiga, markaziy shaharlardagi madrasalarning nufuzi juda yuqori bo'lgan. Madrasalarda, birinchidan, o'quv fanlariga e'tibor va talabchanlik shu darajada yuqori ediki, ko'plab mullavochchalarning o'qishi 20-25 yilgacha cho'zilib ketar, ba'zilari o'qishni oxiriga etkaza olmay tashlab ketar edilar. Ikkinchidan, darslik va o'qiladigan majburiy asarlarning deyarli barchasi, buning ustiga, ularga sharh ham arab tilida bitilar edi. Uchinchidan, o'qishda nisbatan ilg'or usullar ishlab chiqilmagan edi. Shuning uchun ham ulug' fors shoiri Hofiz Sheroziy Mahmud Zamaxshariyning musulmon Sharqining deyarli hamma madrasalarida o'qitiladigan "Al-Kashshof" tafsirining buyuk mashaqqatlari haqida shunday yozgan edi:

Mushkili ishq chu az durdkashon gardad kashf,

Chand dar madrasa dardisari "Kashshof" kashem.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik ilmiy tadqiqot instituti qo'lyozmalar fondida Ulug'bek madrasasi mudarrisi Qozizoda Rumiyning shu madrasani muvaffaqiyatli tamomlagan Shamsiddin Muhammad ismli yigitga bergan sanadi saqlanadi. Unda ushbu talabaning ilm o'rganishdagi salohiyati, chidam-matонатini ta'kidlashdan tashqari, madrasada chuqur o'rgangan ilmlar – asarlarning nomlarini birma-bir sanab o'tadi.

Odatda madrasalar peshtoqiga, eshiklariga naqsh bilan ilm olishga da'vat etuvchi Qur'oni karim oyatlari yoki Hadisi sharif da'vatlari bitilgan. Masalan, Mirzo Ulug'bekning Buxoroda qurdirgan madrasasi peshtoqiga "Bilim olish har bir muslim va muslima uchun farzdir" Hadis da'vati, Buxoroda Abdullaxon qurdirgan madrasa peshtoqiga "Bilimdonlar bilan nodonlar teng bo'ladimi" Qur'on oyatidan hamda "Ilm (shunday narsaki) unga butun umringni baxshida qilmaguningcha, senga o'zining bir qismini ham bermaydi" Hadisi sharif so'zlari naqsh bilan.. Ushbu Qur'on oyatlari hamda Hadis so'zlari yoshlarni tarbiyalashda, ularda ilmga rag'bat uyg'otishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Madrasalarda qoidaga muvofiq haftaning to'rt kuni: shanba, yakshanba, dushanba, seshanba o'qish kunlari; ikki kun: chorshanba, payshanba mustaqil mutolaa kunlari; juma dam olish kuni hisoblangan. Madrasada o'qish bir yilda olti oy davom etgan, umumiy qoidaga muvofiq o'quv yili mezon oyining birinchi kuni (22 sentyabr) boshlanib, hamal oyining birinchi

kuni (22 mart) tugagan; hamal, savr, javzo, saraton, asad, sunbula oylari talabalar tirikchilik ishlari bilan mashgʻul boʻlganlar. Bu haqda madrasalarga xon va podshohlarning maxsus farmoni kelgan. Bu haqda Zokirjon Furqat “Ahvolot”ida quyidagilarni yozadi: “Sayid Muhammad Xudoyorxonkim, ul asr Fargʻona muzofotigʻa hukmron erdi, aning farmoyishi birla madrasalargʻa taʼtilnoma keldi. Rasm budurkim, mezon oyidin boshlab tahsil boʻladur. Tolibul ilmlar atrofu ankofdin kelib madrasalarda, masjidlarda istiqomat qilib, dars oʻquydurlar va boshqa erlardin ham kelib, madrasadin hujra sotib olib, tahsil qiladurlar. Har haftada toʻrt kun dars oʻquladur. Chunonchi, shanba, yakshanba, dushanba, seshanba kunlari. Baʼdaz uch kun mutolaa va takror qiladurlar. Chunonchi, chorshanba, payshanba, juma kunlari. Bu tariqada olti oy muddatikim, oftob Hamal burjidan tuluʼ qilur, tahsil tamom oʻlub, xondin taʼtilnoma chiqadur. Anda ul tolibi ilmlar muraxxas oʻlub, boshqa tirikchilik ishlarigʻa mashgʻul boʻlurlar”.

Oʻqitiladigan ilmlar tasnifi, oʻqitish saviyasi, mudarrislar mavqeiga koʻra madrasalar ikki bosqichga boʻlingan: birinchisi umumiy taʼlim beruvchi oʻquv maskani – u madrasa deb yuritilgan. Ushbu guruh madrasalarda ilmi naqliya – diniy ilmlar ancha chuqur oʻrgatilgan, shu bilan birga, ilmi aqliya-tabiiy fanlardan umumiy maʼlumot berilgan. Bunday madrasalar kichikroq shaharlarda, tumanlarda, baʼzan katta mahallalarda ham boʻlgan. Umumiy taʼlim madrasalarini bitirgan talabalar, asosan, ibtidoiy maktablarda oʻqituvchi, masjidlarda imom, qozixonalarda mufti va boshqa lavozimlarda ishlaganlar, baʼzi qobiliyatli, iqtidorli yoshlar madrasayi oliyada oʻqishni davom ettirganlar.

Ikkinchisi madrasayi oliya deb yuritilgan va taʼlim-tarbiyaning eng oliy bosqichi hisoblangan. Unda yuksak ilmiy martabaga erishgan allomalar faoliyat koʻrsatgan, bunday madrasalar asosan poytaxtlarda, ilm-fan, madaniyat rivojlangan Bagʻdod, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarda boʻlgan. Bunday madrasalar haqida ulugʻ mutafakkir Mahmudxoʻja Behbudiy “Oyna” jurnalida eʼlon qilgan maqolalarida ham maʼlumot bergan.

Madrasalarning har ikki guruhida arab tilining sarfi (morfologiyasi), nahvi (sintaksisi) ancha chuqur va uzoq vaqt oʻqitilgan. Chunki madrasalarda boshqa fanlar boʻyicha oʻqitiladigan asarlar va ularning sharhlari deyarli hammasi arab tilida bitilgan va arab tilini mukammal bilish talab etilgan. Madrasalarning qanday fanlarga moʻljallanganligidan qatʼi nazar, ulumi naqliya (Qurʼon, hadis, fiqh, tasavvuf) va u bilan bogʻliq boʻlgan ilmlar taʼlim dasturining asosini tashkil etgan. Baʼzi madrasalarda, ularning ixtisosiga koʻra, ulumi aqliya, ulumi maʼmuriya, ulumi harbiya ilmlari oʻqitilgan. Chunki ularda asosan davlat maʼmuriyatida xizmat qiluvchi, elchilik ishlari bilan shugʻullanuvchi davlat arboblari yoki lashkarboshilar tayyorlangan. Shunga koʻra bunday madrasalarda Unsurulmaoliy Kaykovusning “Qobusnoma”, Nizomulmulukning “Siyarul

muluk” (“Siyosatnoma”), Shayx Sa'diyning “Guliston” va “Bo`ston” asarlarini ancha chuqur o`rganganlar.

Madrasalarning ham iqtisodiy, ham ma'naviy maqomi (statusi)ni belgilovchi asosiy hujjat uning vaqfnomasidir. Unda madrasaning bosh mudarrisi va turli fanlar mudarrislaridan tortib, talabalarning sonigacha, mudarrislarga belgilangan maoshdan tortib, talabalarning (adno, avsat, a'lo) bosqichlariga qarab beriladigan vazifa (stipendiya)larigacha, ichki tartib-intizomidan tortib, madrasa ta'miriyu kutubxonasidagi kitoblargacha ma'lumot beriladi.

Har bir madrasada, albatta, mutavalli lavozimi bo`lgan. U, asosan, xo`jalik ishlari bilan shug`ullangan. Vaqf erlarini ijaraga berish, undan tushadigan daromadni, vaqf ixtiyoridagi tegirmon, karvonsaroylar, do`konlar va boshqa ko`chmas mulkdan keladigan tushumlarni taqsimlash, madrasa xodimlariga maosh, talabalarga vazifa sifatida mablag`, oziq-ovqat mahsulotlari ajratish kabi xo`jalik ishlari mutavalli zimmasida bo`lgan.

XV asrgacha faoliyat ko`rsatgan madrasalar vaqfnomalari-ning bizgacha etib kelmaganligi yoki topilmaganligi tufayli ularda o`qitilgan fanlar, o`quv jarayoni, dasturi, kitoblar, o`qitish usullari haqida to`laroq ma'lumot berish imkoniyatiga ega emasmiz. Ammo Alisher Navoiy “Vaqfiya” asarida o`zi qurdirgan “Ixlosiya”, “Shifoiya”, “Nizomiya”, “Xisraviya” madrasalariga ajratilgan vaqfi haqida, ularda faoliyat ko`rsatgan mudarrislarga, tolibi ilmlarga yillik, oylik maoshi, hatto bug`doy va arpa hisobida oshlik (oziq-ovqat) belgilanganligi haqida keng ma'lumot beradi:

“Arbobi vazoif – ikki olimi muttaqi mudarris bo`lg`ay: har birining yillik vazifasi ming ikki yuz oltun naqda, yigirma to`rt yuk oshlig`kim, sulsi, arpa, sulsoni bug`doy bo`lg`ay. Har halqai darsda o`n bir tolibi ilmkim, borisi yigirma ikki bo`lg`ay, a'lo: har biriga oyliq naqd yigirma to`rt oltun, yilda bo`g`doy besh yuk; vasat-sekiz: oyliq har biriga naqda o`n olti oltun, bug`doy yilliq to`rt yuk; adno – sekiz: oyliq har biriga naqda o`n ikki oltun, oshliq yilliq uchun uch yuk. Olti xushxon hofizdan musaddirg`a yilliq naqda besh yuz oltun, munosafa oshliq o`n besh yuk; soyirdan har biriga yilliq naqda yuz sekson oltun, bug`doy to`rt yuk. Shayxqa yilliq naqda ming oltun, munosafa oshlig` o`n yuk. Voizg`a yilliq naqda besh yuz oltun, bug`doy o`n yuk. Ilmog`a masjidi jomi'da xatib bo`lub, maktab dag`i tutg`ay, yilliq naqda ikki yuz oltun, bug`doy o`n yuk. Muqrig`a yilliq naqda yuz oltun, bug`doy besh yuk. Xonaqoh tabboxining yillig`i naqda ikki yuz seksan oltun, bug`doy besh yuk. Tabaqchig`a yilliq naqda ikki yuz oltun, bug`doy besh yuk. Bir farrosh va ikki xodimdan har birig`a ikki yuz oltundan olti yuz oltun, bug`doy besh yukdan o`n besh yuk”.

Madrasalar vaqfnomalarida faqat iqtisodiy jihatlarigina emas, balki madrasalardagi tartib-intizom, o`qitiladigan ilmlar haqida, talabalarning uch-adno, avsat, a'lo guruhlariga bo`lib

o'qitilishi, demak, ularning o'ziga xos o'quv dasturlari bo'lganligi haqida ma'lumot beradi. XV asr Samarqand va Hirot madrasalarida o'qish muddati 8 yil bo'lgan. Agar talaba 8 yil ichida dastur talablarini bajara olmasa, belgilangan vazifa to'xtatilgan va talabalarga ko'rsatilgan imtiyozlardan mahrum etilgan. Alisher Navoiyning "Vaqfiya" asaridan yana shu narsa ma'lum bo'ladiki, madrasadagi tartib-intizom, talabalarning darsga qatnashishi qattiq nazorat qilingan, dars qoldirganlarga vazifa berish to'xtatilgan va hatto uch qatla sababsiz dars qoldirsa, madrasadan chiqarilgan, uning o'rniga munosib talaba qabul qilingan. Bu madrasa tartib-intizomining ancha qattiq bo'lganligini ko'rsatadi: "Shart ulkim, madrasa mavolisi madrasada baytutat qilg'aylarkim, agar o'zga erda sokin bo'lub, dars chog'i hozir bo'lmasalar, muqarrar qilg'on vazifaning nisfin olg'aylar va bu madrasa va xonaqohning mudarrisidin yo talaba va mutavvali va shayx va huffoz va soyir amalasidin nomashru' amre sodir bo'lsa, ikki qatlag'acha shar'an har muoxazag'a mustavjib bo'lsalar, anga ko'ra ta'zir va ehtisob qilsunlar. Uch qatla vujud tutqondin so'ngra ixroj qilsunlar, dag'i o'rnig'a yana kishi nasb qilsunlar".

Davlat miqyosidagi madrasayi oliyalar vaqf mulkidan tashqari davlat xazinasidan ham ta'minlanar edi.

Umuman, madrasalar a'lam, qozikalonning umumiy rahbarligida faoliyat ko'rsatgan, ammo madrasayi oliya-davlat miqyosidagi madrasalarga mudarris tayinlash, ularning bilim saviyasini tekshirish, talabalarni vaqti-vaqti bilan imtihon qilishda podshohlar, xonu amirlar bevosita boshchilik qilganlar. Alisher Navoiyning kichik zamondoshi tarixchi-olim, shoir Zayniddin ibn Abdujalil Vosifiy (1486-1566) o'zining "Badoe'ul-vaqoe'" ("Go'zal voqealar") asarida Ulug'bekning Samarqandda bino qilgan madrasayi oliyaga mudarris tayinlash bilan bog'liq bir voqeani shunday tasvirlaydi: "813-yil (1420 yil milodiy) kuz faslining farahbaxsh kuni, madrasa qurilishi itmomig'i etgan, hammayoq saranjom-sarishta, olimlar, tolibi ilmlar, qoziyul-quzzot, saroy ahli yangi madrasa hovlisiga jam bo'lgan. Hammani bu firdavsmonand madrasaning birinchi mudarrisi (hozirgi atamada rektor – U.D.) kim bo'lishi qiziqtirar edi. Mirzo Ulug'bek to'planganlarga murojaat qilib, "Hamma ilmlarda etuklikka erishgan kishi ushbu madrasaning birinchi mudarrisi bo'lsin", deydi. Shu payt odamlar e'tiboridan tashqarida, g'isht qoldiqlari uyumi ustida o'tirgan, birholatda kiyingan odam o'rnidan turib, "bu martabaga men loyiqdurman", deydi. Mirzo Ulug'bek uni bir oz sinab ko'rdi va ilmiy etukligiga ishonch hosil qilgach, imtihon darsi o'tishni buyurdi. U hammomda poklanib, toza kiyimlar kiyib, belgilangan kuni xuddi shu Ulug'bek madrasasida to'qson olim va talaba huzurida imtihon darsini o'tdi. Batlimus (Klavdiy Ptolomey)ning "Majastiy" ("Ulug' to'plam") asari bo'yicha nihoyatda yuksak ilmiy saviyada o'qilgan bu imtihon darsini faqat Qozizoda Rumiy va Mirzo

Ulugʻbek tushundi, xolos. Bu oʻz davrining etuk olimi va mudarrisi Shamsiddin Muhammad Havofiy edi”.

Bu anʼana XX asr boshlarigacha davom etdi. Xorazmning ulugʻ maʼrifatparvar xoni Muhammad Rahimxon – Feruz vaqti-vaqti bilan madrasa talabalarini imtihon qilar, mudarrislarning bilimini tekshirib turar ekan. Davlat ahamiyatiga molik boʻlgan madrasalar mudarrislarini oʻzi tayinlagan, darslarni qanday saviyada oʻtishlarini aniqlash maqsadida, hozirgi atama bilan aytganda mudarrislarni “ochiq darslar” oʻtkazishga daʼvat etgan. Bu haqda xonning zamondoshi, tarixchi olim, xattot Xodim quyidagilarni bayon qiladi: “Arabxon madrasasining oxuni (mudarisi – U.D.) Yusuf Hoji Doiy adabiyot ilmi boʻyicha Saʼdiyning “Guliston” va “Boʻston” asarlari, Firdavsiyning “Shohnoma” asari boʻyicha saboq berganida, Feruz mazkur asarlar yuzasidan savollar berib, bizni imtihon qildilar. Ana shunday paytlarda birortamiz gʻazal oʻqishda xatolikka yoʻl qoʻysak yoki birorta soʻzni notoʻgʻri talaffuz etsak, Feruz bizni toʻxtatib, xatolarimizni toʻgʻrilar, u yoki bu soʻzning maʼnosini aytib berar, hech hafa qilmasdan kamchiligimizni yoʻqotishga yordam berardi... Xon hazratlarining mudarrislar darslarini tez-tez kuzatib turish odati bor edi”.

Demak, madrasalar faoliyati hamma vaqt davlat ahamiyatiga ega boʻlgan va podshohlar, amirlar, xonlar eʼtiborida boʻlgan.

Madrasayi oliyada dars berish, oʻqitish usullari alohida eʼtiborga loyiqdir. Mirzo Ulugʻbek dars berish jarayonida, ayniqsa, munozara-bahs usuliga tez-tez murojaat qiladi. Darhaqiqat, munozara (disput) usuli, birinchidan, talaba nuqtini oʻstirsa, ikkinchidan, masala mohiyatini chuqur idrok qilishga olib keladi. Mirzo Ulugʻbek faqat talabalarga dars berish bilan cheklanmay, madrasa mudarrislariga, rasadxonada ishlovchi olimlarga ham dars oʻqir, munozaralar oʻtkazar, shu bilan ularning malakasini oshirar edi. Oʻziga xos akademiya vazifasini oʻtagan Ulugʻbek rasadxonasi madrasa mudarrislari malakasini oshiradigan ilm maskani ham sanalgan. Madrasayi oliyaning deyarli hamma mudarrislari rasadxonada ilmiy izlanishlar, asarlar yaratish bilan mashgʻul boʻlganlar. “Samarqand akademiyasi” haqida bundan 250 yil muqaddam mashhur frantsuz yozuvchisi, faylasufi Mari Fransua Volter ancha eʼtiborga loyiq fikrlar bayon qilgan.

Shu oʻrinda yana bir muhim masalaga oydinlik kiritish maqsadga muvofiqdir. Oʻtmishda madrasalar bilan yonma-yon masjid va xonaqohlar qurilgan. Shoʻrolar mafkurasiga koʻra xonaqohlar koʻpincha ilmiy asarlarda faqat darvesh va qalandarlar, shayx va zohidlar zikr tushadigan maskan sifatida baholab kelingan. Bu haqda “Oʻzbek sovet entsiklopediyasi”da quyidagilarni oʻqiymiz: “Xonaqoh shayx va darvishlar zikru samo qiladigan xona, masjid. Darvishlar, ziyoratchilar uchun tunash joyi sifatida masjid, maqbaralarning bir qismi tarzida

qurilgan. Darvishlar uyushmalarining markazi sifatida qurilgan yirik xonaqohlarning katta zallari, ularning atrofida ziyoratchilar uchun hujralar bo'lgan". Aslida, xonaqohlar ham madrasalar vazifasini bajargan bo'lib, talabalar uchun bir necha hujralari, darsxonalari, kutubxona, ilmiy munozara o'tkazish uchun maxsus katta xona, mudarris va voiz uchun marmar yoki yog'ochdan ishlangan minbari bo'lgan, talabalarga muntazam dars berganlar. Tarixchi-olim g'iyosiddin Xondamir o'zining "Xulosat ul-axbor" asarida Alisher Navoiy bino qilgan "Ixlosiya" madrasasida hamda "Xalosiya" xonaqohida dars bergan 20 dan ortiq davrining atoqli mudarrislarini sanab o'tadi. Uning mudarrislar Mavlono Burhoniddin Atoulloh hamda Amir Ibrohim Mashhadiy haqidagi so'zlariga e'tibor bering: "Xulqining yaxshiligi, faxmu farosatining tezligi bilan zamondoshlaridan mumtozdir. Birmuncha vaqt xoqoni Said hazratlari Shohruhning madrasasida hamda sulton hazratlarining yaqin do'sti (Alisher Navoiy)ning "Xalosiya" xonaqohida dars berish bilan mashg'ul bo'ldi... Amir Ibrohim Mashhadiy "Sultoniya" madrasasida hamda fazilatli "Xalosiya" xonaqohida dars berish bilan mashg'ul, talabalarning ko'plari ul janobga mulozim bo'lib, ko'p bahra olmoqdalar".

Xuddi hozirgi etakchi universitetlarda bo'lgani kabi, Ulug'bek madrasayi oliyasida ham iqtidorli, qobiliyatli yoshlar madrasa xatmidan keyin mudarris sifatida olib qolingan. Mana shunday yoshlardan Alouddin Ali Qushchi, Abdurahmon Jomiy, Mansur al-Koshiy va boshqalar ulug' allomai zamon Qozizoda Rumiy va Mirzo Ulug'beklar e'tiboriga tushgan va shu madrasada dars bergan edilar. Abdurahmon Jomiy 1452 yilga qadar Ulug'bek madrasasida sarf va nahfdan dars bergan. U keyinchalik mudarrislik tajribalarini umumlashtirib, "Sharhi mullo" asarini yaratdi, bu asar "Al-Kofiya" asariga sharh bo'lib, XX asr boshlarida ham madrasalarda asosiy darsliklardan biri sifatida qo'llanib kelgan.

Madrasayi oliyani muvaffaqiyatli xatm qilganlarga turli madrasalarda mudarrislik qilish mumkinligi haqida ijozatnoma (ba'zi manbalarda sanad) – diplom berilgan.

Talaba domlaning darsi bilan (eng yuqori ilmiy saviyada o'tsa ham) cheklanishi mumkin emas. U mustaqil kitob ustida ishlash malakasiga ega bo'lishi kerak. Talaba ilmdagi bir muammo yuzasidan olimlarning turlicha qarashlarini bilishi va ularga o'zining shaxsiy munosabatini bildirishi kerak. Shu maqsadda madrasayi oliyalar qoshida boy kutubxonalar, ularda noyob kitoblar bo'lgan, darvning ko'zga ko'ringan dabirlari, sahhoflari, xattotlari faoliyat ko'rsatganlar, ular yangi-yangi kitoblarni ko'chirganlar, kutubxonani kerakli asarlar bilan boyitganlar. Bulardan tashqari, podshohlar, ulug' mutfakkirlarning shaxsiy kutubxonalari bo'lgan, ulardan iqtidorli talabalar foydalanganlar.

Sharq mamlakatlari, ayni zamonda, Markaziy Osiyo madrasalarida asosiy o'qitish usullaridan biri sharhlab o'qish usuli edi. Ma'lumki, madrasalarda, shuningdek, boshqa o'quv

yurtlarida diniy ilmlar, gumanitar fanlar, aniq fanlardan riyoziyot, falakiyot, handasa, jug`rofiya, tib ilmlari o`qitilgan. Gumanitar ilmlardan mantiq, fiqh, ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi bade', ilmi maoniy kabilar o`qitilgan. Shuni alohida ta'kidlab o`tish kerakki, bu ilmlar talabalar bilim saviyasidan ancha yuqori edi. Mazkur ilmlar uchun ulug` olimlar tomonidan turli xil asarlar yaratilgan. Olimlar ko`p hollarda ushbu asarlarini yozayotgan vaqtda madrasa talabalarining bilim saviyasini hisobga olmagan holda o`zlarining bilimlarini asarga kiritganlar. Shuning uchun talabalar o`qiyotgan asar materiallarini puxta o`zlashtira olmaganlar, qiynalغانlar. Buni yaxshi tushungan keng ma'lumotli mudarrislar – olimlar bunday asarlarni talabalarbop qilib qayta ishlab chiqqanlar – madrasada o`qitiladigan har bir asar uchun sharh yozganlar. Mazkur sharhlovchi olimlar asarning boshidan oxirigacha sharh berishga, asar muallifining fikrlarini keng miqyosda ochishga harakat qilganlar. Bunday sharhlar madrasa talabalarining asarni tushunishlari uchun katta yordam bergan. Demak, talaba ilmiy asarni ham, unga yozilgan sharhni ham o`qishga majbur bo`lgan. Sharh asardagi (darslikdagi) har bir muammoni ochishga xizmat qilgan. Ayniqsa, mantiq ilmini, ilmi aruz, ilmi maoniy, ilmi bade' kabi adabiyotga oid ilmlarning mohiyatini ochishda sharhlab o`qitish usuli katta yordam bergan. Keyinchalik sharh faqat madrasalarda o`qitiladigan asarlar uchun emas, balki barcha ilmiy asarlarga keng izoh berish, muallifning fikrlarini kengaytirish, soddalashtirish uchun ham xizmat qilgan.

Ma'lumki, Shayx Muslihiddin Sa'diyning "Guliston" asari necha-necha asrlar davomida madrasalarda o`qitilgan. 1909 yilda Murodxo`ja domla Solihxo`ja o`g`li uni o`zbek tiliga tarjima qilgan; shu bilan birga, talabalarga va mudarrislariga qulay bo`lsin uchun ko`pgina so`fiyona fikrlarga, jug`rofiy nomlarga, tarixiy ismlarga keng sharh bergan. Bunday sharhlar talabalar uchun asar mazmunini, badiiyatini, ijodkorning falsafiy qarashlarini chuqur idrok qilish imkonini bergan. Shuning uchun ham kitobga sharh beruvchi mudarris turli manbalarni ko`zdan kechiradi va sharh uchun materiallar to`playdi.

Madrasalarda sharhlab o`qitish tarixiy an'anaga ega. Bu an'ana, ayniqsa, madrasalarda keng qo`llangan. Sharq mamlakatlarida, shu jumladan, Markaziy Osiyoda sharhlab o`qish IX asrdan e'tiboran madrasalarga hamda qisman maktablarga tatbiq qilina boshlandi. Sharqning eng ilg`or madrasalaridan Ulug`bek madrasasida Qozizoda Rumiy, g`iyosiddin Jamshid Koshiy, Mirzo Ulug`bek, Ali Qushchi matematika va astronomiyadan, Hoji Burhoniddin tibbiyot ilmidan, Fazlulloh Abulaysiy fiqh, ilmi bade'dan, Abulqosim Samarqandiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik ilmlaridan, Abdurahmon Jomiy sarf va nahfdan dars berganlar. Mudarrislar talabalar ta'lim-tarbiyasiga nihoyatda katta mas'uliyat bilan qaraganlar. O`z davrining olimlari tomonidan yaratilgan va darslik sifatida foydalaniladigan asarlar bolalar ruhiyatini, bilim saviyasini yaxshi bilgan, o`z umrini yoshlar tarbiyasiga bog`lashgan mudarrislar-pedagoglar

bunday asarlarga sharh yaratganlar. Sharhlovchi mudarris darslik-asarning boshidan oxirigacha tushuntirish matnini yozgan, asar muallifining ilmiy fikrlarini keng tahlil qilgan, kerakli o`rinlarda shu mavzudagi boshqa ilmiy asarlar bilan muqoyasa qilgan. Bunday sharh beruvchilarni shorih deb ataganlar. Shorihlar mudarris-pedagog bo`lish bilan birga, o`z davrining bilim doirasi ancha keng olimlari ham bo`lganlar. Ko`p hollarda shorihlar sharhlarni kitobning har beti hoshiyasiga yozganlar. Bunday sharhni sharhi muhashsho yoki hoshiyayi sharh deb ataganlar. XV asrda Alisher Navoiy rahnamoligida Hirot shahrida o`nlab shoruhlar etishib chiqdilar. Buyuk tarixchi-olim, Alisher Navoiyning kichik zamondosh va shogirdi g`iyosiddin ibn Humomuddin Xondamir o`zining “Makorimul-axloq” va “Xulosatul-axbor” asarlarida Sayfiddin Ahmad Taftazoniy, Husayn Voiz Koshifiy, Fasihiddin Muhammad Nizomiy, Imodiddin Abdulaziz Abxariy, Hoja Abulqosim Abulaysiy (Fazlulloh Abulaysiyning o`g`li – U.D.) kabi mudarris-shorihlar va ularning sharhiy asarlari haqida ma'lumot beradi: “Oxund Fasihiddin Muhammad Nizomiy hikmat, riyoziyot, ma'nilar bayoni, sarf hamda nahv ilmlari bo`yicha yozgan asarlari ko`p va ularning aksariyati talabalar orasida mashhurdir. Ul janob fiqh va hadis ilmlari bo`yicha ham benihoyat mohir bo`lgani uchun shu kunlarda “Viqoya”ga sharh yozish bilan banddir, inshoolloh, tamomlash ziynatiga muyassar bo`lg`ay”.

Buyuk mutafakkirlar asarlariga yozilgan sharhlar talabalar uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega bo`lgan. Bu haqda qomusiy olim Abu Ali ibn Sino o`zi bilan kechgan qiziq bir voqeani hikoya qiladi. Ibn Sino odati bo`yicha kitob do`konlarini aylanib yurganida, do`kondor-sahhof unga bir kitobni tavsiya qiladi va pulga nihoyatda muhtojligini ham aytadi. Ibn Sino bu kitobni do`kondor aytgan narxga oladi va uyidagi kitob javoniga tashlab qo`yadi. Kunlardan bir kun olim shu kitobni varaqlay boshlaydi. Tasodifni qarangki, u darajada xushiga yoqmay olgan ushbu kitob Arastuning “Metofizika” asariga Abu Nasr Forobiy tomonidan yozilgan “Mo ba'da at-tabia” (“Tabiatdan tashqari narsalar”) sharhi edi. Arastuning “Metafizika”sini bir necha marta o`qib tushuna olmagan Ibn Sino Forobiyning sharhini o`qib, to`la tushunib etganini yozadi: “Men Arastuning “Tabiatdan tashqari narsalar” kitobi maqsadlarini tushunmay, diqqat bo`lib yurardim. Bir kuni Abu Nasrning bu boradagi sharhini topib oldim, bunday kitob topganimdan xursand bo`lib, xudoga shukur qildim va ataylab ro`za tutdim, faqirlarga xayr-sadaqa ulashdim”. Abu Nasr Forobiy hayoti davomida yunon mutafakkirlari Platon, Aristotel, Evklid, Ptolomey asarlariga sharh yozgan.

Madrasa ta'limining o`ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda arab va fors tillarini o`qitish masalasiga alohida e'tibor berilgan. Maktablarda tushunmasdan quruq yodlash asosiy o`rinni egallagan bo`lsa (“katta bo`lganda tushunib oladi” degan fikr odat tusiga kirgan – U.D.), madrasalarda esa o`qilgan asarni chuqur tahlil qilish, idrok qilish, boshqa asarlarga muqoyasa

qilish, mantiqiy fikrlash birinchi o`ringa ko`tariladi. Buning uchun, avvalo, arab va fors tillarini, mantiq ilmini mukammal bilish talab qilinadi.

Madrasalarimiz tarixidagi bunday nurli sahifalar XVII asrgacha davom etdi, temuriylar saltanatining parokandalikka yuz tutishi madrasalar hayotiga ham kuchli salbiy ta'sir ko`rsata boshladi. To`g`ri, Samarqandda Sherdor, Tillakori, Toshkentda Ko`kaldosh, Buxoroda Abdullaxon, Xivada Islomxo`ja madrasa va minoralari kabi salobatli, muhtasham madrasalar qad ko`tardi, ammo ularning dasturida naqliy ilmlarni o`qitish etakchilik qildi. Bu davrda aqliy ilmlar Ovruponi yuksaklikka olib chiqayotgan edi. Ayniqsa, Vatanimiz chor Rossiyasi tomonidan bosib olingach, boshlang`ich va oliy ta'limdagi inqiroz yanada chuqurlashdi. Maktab va madrasalarni asrlar davomida iqtisodiy jihatdan ta'minlab kelayotgan vaqf mulklari mustamlakachilar tasarrufiga o`tdi. Maktab-madrasalarda faqat diniy ilmlargina o`qitilib, aniq fanlardan ibtidoiy bilim olmoqchi bo`lganlar rus-tuzem maktablarida o`qish joriy etildi. Natijada, milliy ta'lim yo`qqa chiqarildi, bu hol o`zoqni ko`ra oladigan o`zbek ziyolilarining noroziligiga sabab bo`ldi. Ular Chor Rossiyasidek makkor mustamlakachilar ta'qib va tazyiqlari ostida inqiroz botqog`iga botgan ibtidoiy maktablar o`rnida "usuli savtiya" metodiga asoslangan "usuli jadid" maktablari tashkil qilish, madrasalarni zamonaviy ilmlar zaminida qayta tiklash, zamonaviy oliy o`quv yurtlari – universitetlar ochish uchun kurash olib bordilar. Bu zumraning tepasida Mahmudxo`ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Saidahmad Vasliy, Abdurauf Fitrat kabi istiqlol fidoyilari turdilar.

Madrasalar islohi masalasini ham Rossiya musulmonlari orasida birinchi bo`lib kun tartibiga qo`ygan mutafakkir Ismoilbek Gasprali bo`ldi. U 1881 yilda nashr qilgan "Rusiya musulmonligi" asarida, "Tarjimon" gazetasida e'lon qilgan turkum maqolalarida bu masalaga alohida e'tiborni qaratadi. Avvalo u arab tili, fiqh va aqoid kabi fanlarni ona tilida o`qitish masalasini qo`yadi: "Ona tilimizda dars o`tilmagani holda juda og`ir bo`lgan arabiy darslar fors tilida o`tilib, yana mashkul bir ahvolga qo`yilgandir. Bu ahvolda ilm tahsili va taraqqiyoti bo`ladimi? Albatta bo`lmaydi. Yilda olti oy, kunda uch soat, nazoratsiz, imtihonsiz, bir nizom va intizomsiz tahsil albatta 15-20 yil umr talab qiladi va shuncha umr ketgandan keyin ham na arab tili bizga boylik berar, na turk tilida kamolot berar". Madrasalarda tartib-intizom, ma'lum belgilab qo`yilgan o`quv muddati kerak.

Darhaqiqat, islohotni madrasa tartib-intizomidan, hamma – talabalar ham, domlalar ham bo`ysunishga majbur bo`lgan qonun-qoidalardan boshlash kerak. Avvalo talabalarni oziq-ovqat, oshpazlik, o`tin-ko`mir, umuman, tirikchilik mashaqqatlaridan ozod qilish kerak, toki ular butun imkoniyatlarini, vaqtlarini ilm olishga safarbar qilsinlar. Buning uchun madrasalarda hamma talabalar uchun umumiy oshxonalar tashkil qilish, ma'lum bir vaqtda hamma talabalar

ovqatlanishi, darsga kirishi, dam olishi va ma'lum vaqtda darslar tugashi belgilab qo'yilishi kerak, bir so'z bilan aytganda, hamma talabalar sinf-sinflarga bo'linib, yagona jadval asosida dars olib borilishi kerak. Ismoilbek Gasprali dars kunlarini ham tartibga solish, haftaning 6 kunida dars jadvali asosida 8-9 soatdan dars o'qish, yillik o'qishni 9-10 oy uzluksiz qilib belgilash va har yil oxirida yillik imtihon o'tkazish, shu yo'l bilan madrasada o'qish muddatini 5 yil qilib belgilash masalasini qo'yadi. Shu bilan birga, islohotchi mudarrislarga ham katta mas'uliyat yuklaydi – ularning talabalarga bo'lgan e'tiborini kuchaytirish uchun ularni boshqa xizmatlardan-imomlik, xatiblik ishlaridan ozod qilish, ularning iqtisodiy ta'minotini yaxshilash masalasiga alohida e'tibor beradi. I.Gasprali fikricha, o'qituvchilar ham, talabalar ham davlat tomonidan iqtisodiy jihatdan to'la ta'minlanishi kerak.

Aksincha, mustamlakachi ma'muriyat esa milliy ta'lim muassasalarini barbod qilish yo'lidan bordi. Islombek Gasprali so'zlariga e'tibor bering: "Nima qilmoq kerak? Islohoti mulohaza va g'ayrat. Bugungi kunda tahsilni kengaytirmoq, maydonlashtirmoq hech mumkin emasdir. Lekin bir qancha islohotlar orqali amalga oshirish mumkin, deb o'ylaymiz. Eng avvalo to'qqiz oylik tahsil yo'lga qo'yilishi kerak. Ikkinchidan, talabani oziq-ovqat tadorigidan bo'shatib, har kuni 8-9 soat dars bilan mashg'ul bo'lishini ta'minlash kerak. Uchinchidan, madrasa va xujralarning sharoitlari yaxshilanib, talaba u erda xordiq chiqarmog'i lozim. To'rtinchidan, talabaning osh-ovqatini tayyorlab berish kerak. Sinf-sinf qilib dars bermoq uchun guruhlarini 2-3 turli mullalarga topshirib, ular talaba va madrasa sharoitidan xabardor bo'lib, nazorat qilishlari va yilda bir marta imtihon qilishlari kerak. Beshinchidan, har bir madrasada bir oshpaz va bir xizmatchi bo'lishi kerak. Ular ovqat tayyorlash va boshqa shu turdagi ishlar bilan band bo'ladilar. Oltinchidan, muddaris afandilar imomlik va xatiblik kabi ma'muriyatlardan ozod qilinib, yashashlari uchun etarli darajada maosh va vaqf tayin qilinishi kerak. Ettinchidan, dars davomida ona tilimizda o'qish, yozish va ilmi hisobga bir oz ko'proq e'tibor qaratish lozim. Haftada 1-2 kun arab tilida gaplashadigan kunlar madrasada boshqa tilda so'zlashish taqiqlanishi kerak. Sakkizinchidan, barcha talabalarining dars, ovqat va dam olish vaqtlari belgilanib, sinf-sinf bo'lib ma'lum vaqtlarda barchalari darsga va ovqatga borishlari lozim. Bu kabi va shunga o'xshash tartiblar bilan 10 yillik darslar 5 yilda tamomlanishi kerak. Yana boshqa islohotlar undan keyin mulohaza qilinaveradi".

Ismoilbek Gasprali ushbu maqolasida madrasalarning faqat ma'muriy jihatlariga - tartibigagina e'tiborni qaratadi, ularda qanday fanlar o'qitilishi, o'qitish usullari kabi asosiy masalalar haqida o'quv muassasida tartib-intizomni qonunlashtirgandan keyingina fikr yurtish mumkin bo'ladi.

Umuman, madrasalarda odatda o`qish bir yilda 6 oy bo`lib, o`qish davomida ro`za kunlari, Ramazon va Qurbon hayitlaridan bir hafta oldin va bir hafta keyin darslar to`xtatilgan, bu ham 6 oylik o`qish muddatini yanada qisqartirgan.

Chuqurroq e'tibor beriladigan bo`lsa, Ismoilbek Gaspralining madrasalar islohi munosabati bilan o`rtaga qo`yayotgan talablari hozirgi zamon oliy o`quv yurtlaridagi talabalar uchun maxsus umumiy yotoqxonalar, oshxonalarni eslatadi. Talabalarga biriktirib qo`yilgan domlalar yotoqxonalarda maxsus tarbiyaviy ishlarni olib boradilar, yotoqxona va talabalar yashash sharoitini yaxshilashda ma'lum ishlarni amalga oshiradilar.

Turkiston o`lkasida madrasalar islohi mahalliy maktablarga nisbatan birmuncha kech boshlandi. Buning asosiy sabablaridan biri mustamlakachilarning madrasalar islohotiga keskin qarshilik ko`rsatishi edi. N.Ilminskiy 1879 yil 29 sentyabrda N.Ostroumovga yo`llagan xatida madrasalarni aslo isloh qilmaslik, ularning dasturiga dunyoviy, amaliy va ilmiy fanlarni kiritishga yo`l qo`ymaslikni maslahat beradi. Uning fikricha, bunday fanlar mahalliy yoshlar milliy ongining uyg`onishida asosiy vosita bo`ladi, bu esa, o`z navbatida, Rossiyaning o`lkadagi hukmronligiga qarshi kurashda ular uchun qurol bo`ladi.

O`lka madrasalarining bunday parokandaligi, tartibsizligi o`zbek ma'rifatparvarlarini ancha tashvishga solayotgan edi. Aniq fanlarni egallash orqaligina o`lkani qoloqlikdan, xalqni jaholatdan qutqarish mumkinligiga o`zbek mutafakkirlari ishonar edilar. 1880-yillardayoq Shayxvon Tahur dahasi qozisi Sharifxo`ja Poshshoxo`ja o`g`li madrasalarda fizika fanini o`qitish masalasini general-gubernatorlik darajasiga olib chiqqan edi. Sharifxo`ja va Sebzor dahasi qozisi Muhiddinxo`ja Hakimxo`ja o`g`li Toshkentning ruslar yashaydigan qismiga yaqin bo`lgan Eshonquli dodxoh madrasasida rus tilini o`qitish masalasi bilan chiqdilar. Ammo Ilminskiy g`oyalariga amal qilgan general-gubernatorlik ma'murlari ularning bu talablariga tish-tirnoqlari bilan qarshi chiqdilar.

O`lka madrasalari ahvoli "Sho`ro" jurnalida qizg`in muhokama va munozara mavzusi bo`ldi. Shu ma'noda Sadriddin Ayniyning "Buxoro shahrinda tahsil", N.Yovushevning "Samarqand madrasalari", "Turkiston madrasalarinda dars programi", A.Asmoniyning "Xiva mamlakatinda madrasalar", S.Mustafoning "Buxoro madrasalari" kabi maqolalarini alohida ta'kidlab o`tish zarur. Bu maqolalarda Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xiva, Qo`qon madrasalari haqida fikr yuritilib, ularning tashqi ko`rinishi me'moriy san'at namunasi sifatida baholanadi. Ammo madrasalarning ichi, ya'ni ulardagi o`quv dasturlari, darsliklari, o`qitish usullar – umuman pedagogik texnologiya tamoman yaroqsiz, zamon talablariga javob bermaydi, deb tanqid qilindi, bor haqiqat aytili. Xususan, Buxoro madrasalaridagi 18-20 yillik o`quv dasturi,

talabalar umrining bekor o'tishi, o'qitilayotgan fanlarning davr ehtiyojlariga mos kelmasligi ko'p afsus bilan tilga olinadi.

XX asrga kelib, madrasalar islohoti haqida "Turkiston viloyatining gazetasi" sahifalarida maqolalar bot-bot ko'rinishida boshlandi. O'zbek mutafakkirlari orasida madrasalar faoliyati, uni isloh qilish masalalari bilan ko'proq mudarris Saidahmad Vasliy Samarqandiy shug'ullandi. Uning madrasalar islohiga bag'ishlangan maqolalari "Turkiston viloyatining gazetasi", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona" gazetalarida, "Oyna", "Al-isloh" jurnallarida anchagina. Jadid pedagogi, dramaturgi Hoji Muin Vasliyning islohotchilik faoliyati haqida quyidagilarni yozadi: "Vasliy afandi eski madrasalardagi tahsil va tadrus usulining kamchiliklarini boshlab anglag'onlardan, ham shuning islohiga doir o'zbek matbuotida eng avval o'z fikrini yozg'on kishilardandur. 1907 yilda tatar olimi va muharrirlaridan Abdurashid Ibrohimov Turkiston sayohatiga kelib Buxoroga tushganda, Vasliy unga Buxoro madrasalarining usulsizligi va hukumat idoralarining buzug'ligi to'g'risida ma'lumot bergan edi. Sayyoh Abdurashid Ibrohimov Vasliydan olg'on ma'lumotini o'zining muhokama va tanqidlari bilan birga o'sha vaqtda Qozonda chiqadurg'on "Axbor" gazetasida nashr qilg'onida, bu voqea butun Buxoro ulamolarini g'alayonga keltirgan edi. Shuning natijasida Buxoro qozikaloni Vasliyni o'z huzuriga chaqirib olib, qattiq urushg'onini eshitgan edik. 1906 yildan boshlab Turkistonda chiqqan har bir o'zbekcha gazetaga Vasliyning islohparvarona she'r va maqolalari bosilg'ondur".

"Turkiston viloyatining gazetasi"ning 1906 yil 7-sonida bosilgan maqolasida madrasalardagi tartibsizliklarning asosiy aybdori sifatida hukmron doiralarni, "ag'niyo"larni ko'rsatadi, boylarimizning beparvorligidan, millat taqdiriga befarqligidan shikoyat qiladi "...hukmronlarimiz besa'y va ulamolarimiz berivoj, hech kim ilm holiga boqmas. Ag'niyolarg'a tanga va so'm bo'lsa bo'lur".

1915 yilda "Al-isloh" jurnalida madrasalar va ularda ta'lim-tarbiya masalalari islohotiga bag'ishlangan ancha katta munozara bo'lib o'tdi. Saidahmad Vasliyning Turkiston madrasalari ahvoliga bag'ishlangan maqolasida madrasalarda o'qitilishi zarur bo'lgan ilmlar, mudarrislarining ma'naviy qiyofasi, bilim darajasi, madrasalar o'quv dasturlari, o'qish muddati kabi muhim masalalarga doir 10 ta savol bilan o'lka mudarrislariga murojaat qiladi:

- “1. Muddati tahsil necha sana bo'lmak kerak?
2. Har sanada necha oy tahsil oyi bo'lur?
3. Har haftada necha kun dars o'qulur?
4. Har tahsil kunlari necha dars o'qulsa nofi' bo'lur?
5. Bir sana o'qutulmish kitobning necha darsg'a taqsim topish lozim?

6. Har darsning miqdori necha sahifa bo'lmak vojib?

7. Shogirdlarning tushunmamlari lozimmi? Yoki darsxonag'a kirib-chiqsa bo'lurmi?

8. Mudarrislarg'a jahd ila shogirdlarni ma'lumotlik qilmaklari vojibmi? Yoki kun o'tkarib, shogirdlarni ishlarga mardikor qilsalar joizmi?

9. Ijzat olib xatm karda bo'lmak uchun rasmiy darslarni bilmak ulumi funung'a olim bo'lmak lozimmi? Yoki barvaqti jamoag'a sherikul dars bo'lub, kelib-ketib uch-to'rt so'm berib, mulla jalolxon bo'lsa kifoyami?

10. Har kim o'z boshicha umr kechurub, vaqflarni eb, mudarrisman deb yursa bo'lurmu? Yoki ulug' ulamolar va hukumat taraflaridan nazorat va tahqiq farzmi?

Vassalom, yana kerak nimarsalarni fuzaloyi kirom hazratlari yozib, "Islah" sahifalarini muzarrin qilsunlar, toki bora-bora biror maslahat yuz berib, nofi'i umumiy hosil bo'lsa edi, qoriin kirom "Islah" g'a salom o'qub qat'iy kalom ediram.

Albatta, madrasalarning tartib-intizomsizligi, o'qitish usullarining taraqqiyotdan butunlay uzilib qolganligi, ayniqsa, madrasalar uchun umumiy dasturning yo'qligi, ularning davlat e'tiboridan butunlay chetdaligi ilg'or fikrli mudarrislarni tashvishga solar edi. Shuning uchun Saidahmad Vasliy o'rta qo'ygan masalalar atrofida davr gazeta va jurnallarida mudarrislarning maqolalari e'lon qilingan. Birinchi bo'lib buxorolik mudarris Ziyovuddin maxsim maqola yozib, har bir savolga o'zining munosabatini bildiradi: "Tanazzulimizning sababi boisi ta'lim va taallumning yo'qligidanmu yoki tartib va prog'ram yo'qlig'idanmu? Albatta, ta'lim va taallum bor, lekin tartib yo'q. Hozirg'acha bu amru muhim va zaruriyning ijrosig'a chalishmadilar. "Al-Islah"ning 13-nomerasida muhtaram mudarris Said-ahmad Vasliy janoblari "Himmatul rijol va taqliul ijbol" sarmaqolasida bir maqola yozib, ommaning sa'yu g'ayrati va hamfikrlarni "Al-Islah" vositasi ila maydong'a qo'ymoqlarini rijo etmishlardur va 10-15 nimarsani kerakmi, kerak emasmi? deb savol etmishlar. Biz ham fikrlarimizni bayon edub, ba'zi savollarina javob beramiz".

Talabalarning asosiy vaqti ilm olishdan ko'ra tirikchilik o'tkazishga sarf bo'lar edi. Ular bahor, yoz kezlari, hatto mustaqil tayyorgarlik (chorshanba, payshanba, juma) kunlari pul topish uchun turli ishlarni bajarishga majbur edilar. Talabalar ham, mudarrislarni ham davlat tomonidan ta'minlangan emas. Shuning uchun ham hatto domlalar talabalar qo'lga qaram edi. Buni madrasa vaqfining mustamlakachilar ixtiyoriga o'tganligi bilan ham izohlash mumkin. Domlarni inson sharafini, mudarris qadr-qimmatini erga uruvchi tamadan qutqarish kerak edi.

Mudarris Vasliy Samarqandiy domla-ustodlarning tamadan ozod bo'lishlari uchun Imom A'zam hazratlaridan o'rnak olishga da'vat etadi: "Muharriri haqir (Vasliy Samarqandiyning o'zi)

ayturki, shu zamondagi mudarris birla ustodlarg`a Imom A'zam hazratlaridek savdogarlik qilib, tamadan pok bo`lmoq lozimdur. Balki talabalarga bir tangalik tadris qilmasdan, talabalar cho`ntaklarini xoli qilmoq munosib emasdur. Zeroki, bu zamonda talaba dars bilmoq va takror qilmoqdan ham ziyodaroq tanga topib, ustodlarini xursand va boy etmakka sarfi maso'iy qilurlar. Agar birmuncha shafqat va mehribonlik ustodlaridan bo`lib, yaxshi o`qutmak murod bo`lsa erdi, ikki tarafg`a ham ko`b savob bo`lur erdi”.

Xulosa qilib aytganda, madrasalar islohoti masalasi zamonaviy oliy ma'lumotli mutaxassislar tarbiyalab etishtirish masalalari bilan bog`lanib ketdi. Bu ishda ayniqsa Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo`ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitratlar katta faoliyat ko`rsatdilar, ko`plab iqtidorli yoshlarni taraqqiy etgan davlatlar oliy o`quv yurtlariga o`qishga yuborishni rejalashtirdilar. Ammo ular bu yo`l orqaligina Vatanni chuqur bilim va malakaga ega bo`lgan milliy kadrlar bilan ta'minlash masalasini hal qilib bo`lmasligini yaxshi bilar edilar. Aslida, chet ellarda o`qib kelgan yoshlar o`lkada ochilajak oliy o`quv yurtlarining birinchi o`qituvchilari bo`lishlari kerak edi.

Jadid mutafakkirlarining ulug` orzusi o`z oliy o`quv yurtlariga ega bo`lish edi. Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy tomonidan ochilgan “Jamiyati xayriya”, “Turon” jamiyatlari nizomida “ovrupocha o`quv muassasalari ochish” moddasi mavjud edi. 1917 yil fevral voqealari, ayniqsa, 1918 yilda Toshkentning yangi shahar qismida A.V.Popov boshchiligida rus xalq universiteti tashkil qilish harakatlari Munavvarqori boshchiligida musulmon yoshlar uchun ham xalq dorilfununi tashkil qilish ishlarini tezlashtirib yubordi. 1918 yil 9 aprelda Munavvarqori eng faol safdoshlari – jadid maorifparvarlarini o`z hovlisiga to`playdi va 9 kishidan iborat “Musulmon xalq dorilfununi tashkilot komissiyasi”ni tuzadi. Ular hammasi “Muallimlar jamiyati”ning faollari edilar. Bu haqda “Xalq dorilfununi” gazetasi quyidagilarni yozadi: “Shu vaqtda bu tarafda musulmon ziyolilaridan bir necha zotlar haqiqatda vaqtning muhimligini, fursatning g`animat ekanligini e'tiborg`a olib, musulmon xalqi uchun bir umumiy o`quv yurti ocharg`a kerakligi haqida mushovara qildilar ham Xudog`a shukr qilib, ishga kirisharg`a qaror berdilar va birinchi o`laroq 9 aprelda Munavvarqori Abdurashidxon afandining hovlisida yig`ilib, musulmon xalq dorilfununi ochmoqg`a sa'y etar uchun bir tashkilot hay'atini ta'sis etdilar”<sup>1</sup>. 9 kishidan iborat tashkiy hay'at ishni boshlab yubordi. Ular Munavvarqori Abdurashidxonov, Burhon Habib, Muxtor Bakir, Murod Xo`ja, Abdusame'qori Ziyoboev, Iso To`xtaboev, Sodiq Abdusattorov, Haydar Shavqiy, Kamol Shams edilar.

Ushbu hay'at bir oy ichida o`n marta yig`ilish o`tkazdi. Yig`ilish hisobotlari “Xalq dorilfununi” gazetasining 1918 yil may-iyul sonlarida berilgan. Tashkilot hay'atining 3 may kuni bo`lib o`tgan majlisida dorilfunun rahbariyatiga saylov o`tkaziladi. Unda Munavvarqori rais

(rektor), Iso To'xtaboev raisning birinchi muovini, Burhon Habib ikkinchi muovini, Abdusame'qori Ziyoboev xazinachi, Muxtor Bakir sarkotib etib saylanadilar<sup>1</sup>. Munavvarqori va tashkiliy hay'atning jiddiy va tinimsiz mehnati natijasida 1918 yil 12 may kuni Musulmon Xalq dorilfununi (hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti)ning tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Dorilfunun millat ehtiyojlaridan, uning bilim saviyasidan kelib chiqqan holda uch: quyi, o'rta, yuqori bosqichli bo'lib, besh yillik o'qituvchilar tayyorlaydigan dorilmuallimin ham mavjud edi. Tez orada viloyatlarda faoliyat ko'rsatayotgan jadid pedagoglari boshchiligida xalq dorilfununining sho'balari ochildi. Bunday ishlarda ayniqsa Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Namanganda Ishoqxon Ibrat, Qo'qonda Ashurali Zohiriylar katta faoliyat ko'rsatdilar. Dorilfunun ishiga qisqa muddatda 299 muallim jalb etildi. Hatto 1918 yil 31 maydan "Xalq dorilfununi" (hozirgi "O'zbekiston Milliy universiteti") nomida Muxtor Bakir muharrirligida muntazam gazeta chiqarila boshlandi.

Zamonaviy o'qituvchilarga ehtiyoj juda katta edi, shuning uchun ham Munavvarqori dorilmuallimin faoliyatiga e'tiborni kuchaytirdi, unga rahbarlikni o'zining sobiq o'quvchisi, jadid pedagogi Shokirjon Rahimiy zimmasiga yukladi. Dorilmuallimin qoshida o'nlab zamonaviy maktablar tashkil etildi. Ammo Turkiston maorif komissari Uspenskiy kabi shovinistik ruhdagi arboblardan Xalq dorilfununi faoliyatiga katta to'siq bo'ldilar: dorilmuallimin 1918 yilning sentyabridayoq tugatildi. Buning ustiga, 1920 yil 7 sentyabrda Turkiston o'lkasida universitet ochish haqida (universitet 1918 yildan faolit ko'rsatyapti!) sho'ro hukumatining rahbari Lenin dekretga imzo chekdi va butun dunyoga jar soldi. Bu bilan Turkiston xalq dorilfununi faoliyatini yo'qqa chiqardi, hamma lavozimlar markazdan kelgan mutaxassislar tomonidan egallandi. Rus tilini talab darajasida bilmaydigan mahalliy millat yoshlari oliy ta'limdan mahrum bo'lib qolaverdilar. Munavvarqori Abdurashidxonov 1918 yilda bir yilga etar-etmas dorilfunun rektori vazifasini bajardi, 1921 yilning 31 martida safdoshlari bilan birga sho'ro hukumatiga qarshi kurashda gumon qilinib, qamoqqa olinadi va yil oxirida ayblov tasdiqlanmagach, ozod qilinadi. Uni va safdoshlarini endi universitet ishiga yaqinlashtirmaydilar. Bunday sharoitda Munavvarqori umidni yana chet el oliy o'quv yurtlariga talabalar yuborishda ko'rdi. 1920-1923 yillarda uning tashabbusi bilan 60 ga yaqin talaba Germaniyaga yuborildi. Bu ishda unga Abdurauf Fitrat va Fayzulla Xo'jaevlar yaqindan yordam berdilar. Chet el oliy o'quv yurtlarini bitirib kelgan yoshlar taqdiri jadid mutafakkirlari qismati kabi fojia bilan yakunlandi. Xalqimizning ulug' farzandlari sho'rolar hukmronligining hamma bosqichlarida ham Millat, Vatan istiqboli uchun kurashganlar. Bu sohada Habib Abdullaev, Ibrohim Mo'minov, Obid Sodiqov, Sa'di Sirojiddinov kabilarning hayot yo'li va faoliyati yoshlar uchun hayot maktabidir.

## **II BOB. CHOR ROSSIYASINING TURKISTONDA MAKTAB SIYOSATI: RUS-TUZEM MAKTABLARIDA O'QITISH MAZMUNI VA USULLARI**

### **2.1. Rus tuzem maktablari**

Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P.Kaufman o'lkada maorifini o'rganib chiqqach, erli aholini ruslashtirish uchun N.I.Ilminskiy (1822-1891)ning Qozon tatarlarini ruslashtirish borasidagi faoliyatini Turkiston o'lkasiga tatbiq qilish maqsadida uni Toshkentga taklif qildi. Ilminskiy arab, fors, turk tillarini ancha mukammal bilgan, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarini 1857 yilda Qozonda nashr ettirgan turkshunos edi. U Qozon diniy akademiyasining professori, turkiy xalqlarni ruslashtirishga qaratilgan maorif tizimini ishlab chiqqan, tatarlarni ruslashtirishda katta tajriba orttirgan missioner edi. Turkiston o'lkasida ochila boshlagan rus-tuzem maktablari ham Ilminskiy tizimi asosida vujudga kelgan edi. Rossiyaning mustamlaka Markaziy Osiyo xalqlari maorifiga munosabati aniq edi: Volgabo'yi, Ural, Kavkaz, Qrimdagi turkiy xalqlar maorifi tizimiga qo'llagan ruslashtirish siyosatini Turkiston xalqlari maorifiga ham tatbiq qilish edi. Bu siyosat Rossiya maorif vazirligining 1869 yildagi nizomida ishlab chiqilgan bo'lib, bu nizom rus missionerlarining rahnomasi N.Ilminskiy faoliyati zaminida vujudga kelgan edi. Shu munosabat bilan 1869 yilda Kaufman Qozonda Ilminskiy bilan uchrashdi va uzoq suhbatlashdi. Ilminskiy Toshkentga kelmadi. Shunga qaramasdan, Turkiston general-gubernatorligi ma'murlari Ilminskiy bilan aloqani uzmadilar. 1875 yilda Kaufmanning topshirig'iga binoan Turkiston o'quv yurtlari bosh inspektori A.L.Kun (1840-1888) Ilminskiyga xat yozib, undan Toshkentda ochilajak o'qituvchilar seminariyasi direktori lavozimiga nomzod taklif qilishini, iloji bo'lsa, ko'zlangan maqsadni amalga oshirishga layoqatli mutaxassis yuborishini iltimos qiladi. Ilminskiy bu lavozimga eng munosib nomzod sifatida Qozon o'qituvchilar seminariyasi o'qituvchisi N.P.Ostroumovni (1846-1930) tavsiya qiladi.

N.Ilminskiy general-gubernator Kaufman taklifini erda qoldirmadi: Rossiya imperiyasi manfaatlari uchun bir yo'la o'zining eng ishonchli shogirdlari va izdoshlari N.P.Ostroumov, M.A.Miropiev, N.A.Voskresenskiy, I.M.Sofiyskiylarni Toshkentga yubordi. Ularning hammasi 1879 yilda ochilgan Turkiston o'qituvchilar seminariyasida ishladilar va o'zlarini ustozlari Ilminskiy e'tirof etgan Turkistondagi pravoslav dinining missionerlari sifatida harakat qildilar. Bu seminariya o'lkada birdan-bir o'qituvchilar tayyorlaydigan o'quv muassasasi edi. Uning birinchi direktori etib Ostroumov tayinlandi, 1883 yildan 1901 yilgacha boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan Miropiev, Voskresenskiy, Sofiyskiylar galma-galdan rahbarlik qildilar. 1901-1917 yillar davomida yana Ostroumov rahbarlikni o'z qo'lga oldi. Umuman, seminariyada Ilminskiyning missionerlik ruhi – buyuk davlatchilik shovinizmi hukmron edi. Tashkil etilajak

rus-tuzem maktablari uchun missionerlik ruhi bilan sug'orilgan o'qituvchilar tayyorlash seminariyaning asosiy maqsadi edi. 1879 yilda seminariyaning tantanali ochilishida Turkiston o'quv yurtlari bosh inspektori A.L.Kun quyidagilarni ta'kidlagan edi: seminariyada erli aholi bolalari ham o'qitiladi, ammo musulmon dini o'qitilmaydi.

N.Ostroumov va u bilan kelgan hamtovoqlari umrlarining oxirigacha Ilminskiy o'gitlariga amal qildilar. Ilminskiy Ostroumov haqida quyidagilarni yozadi: "U (N.Ostroumov) Qozon diniy akademiyasi kursini tugatgan, u erda tatar va arab tillari bo'yicha mening o'quvchim bo'lgan, Muhammad dini ta'limoti, "Qur'on" bilan yaxshi tanish. U qalban, shu bilan birga, ilman missioner. Mening ma'rifatli do'stim Ostroumov missionerlikni insonparvarlik asosida faqat xalq maorifidagina mustahkam asosga qo'yish mumkinligini yaxshi tushunadi".

Darhaqiqat, ilohiyot magistri, Qozon diniy akademiyasining missionerlik bo'limi dotsenti N.Ostroumov Ilminskiyning o'ng qo'li edi. Ostroumov ancha bilimli sharqshunos bo'lgan, ammo bu bilim, akademik I.Yu.Krachkovskiy ta'biri bilan aytganda "ilmga emas, siyosatga xizmat qildi". Ostroumov umrining oxirigacha rus kolonizatorlarining o'ta qabih – o'lka xalqlarini ruslashtirish siyosatini og'ishmay amalga oshirdi. Uning 1883 yilda oshkora yozgan quyidagi so'zlari Rossiya mustamlakachilarining Turkiston maorifi sohasida amalga oshirgan siyosati mohiyatini to'la ifodalaydi: "Ruslarning musulmonlarga bo'lgan munosabatini belgilashda davlat ushbu masalalarni e'tibordan soqit qilmasligi kerak: musulmonlar ta'limiga munosabatda o'zimizning manfaatlarimiz birinchi o'rinda turmog'i kerak. Biz musulmonlarga nisbatan har jihatdan – faqat jismoniy jihatdan emas, ayniqsa, ma'naviy-axloqiy jihatdan ustunlik mavqeiga ega bo'lishimiz kerak".

Ammo rus mustamlakachilari bunday ruslashtirish siyosatini amalga oshirish jarayonida ma'lum to'siqlarga duch keldilar. O'lkada rus bosqinchilariga qarshi davom etayotgan isyonlar, xalq ozodlik harakatlari, mahalliy ziyolilar, shariat-din peshvolarining noroziliklari ularning nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish olib borishlarini taqozo qilar edi. Hatto fon-Kaufman va uning atrofida bu siyosatni asta-sekinlik bilan olib borish tarafdori edilar. Shu maqsadda eski mahalliy maktab va madrasalarni e'tiborsiz holicha qoldirish, mahalliy aholi bilan ziddiyatga bormaslik uchun diniy aqidalarga qattiq tegmaslik, aksincha, diniy mutaassiblikni qo'llab-qu'ltirlash siyosatini olib bordi. Mahalliy aholi bolalari uchun rus maktablari tashkil qilish, ona tilini rus alifbosi asosida olib borish, milliy madaniyat, milliy ma'naviyat va adabiyot bo'yicha iloji boricha ma'lumot bermaslik, mahalliy millat bolalarini o'z tarixidan uzoqda saqlash masalalarida Kaufman bilan Ilminskiy qarashlari juda mos kelar edi.

1870-1880-yillarda Turkiston o'lkasida mustamlakachilik siyosatini mustahkamlash, Rossiya imperiyasiga, general-gubernatorlikka sidqidildan xizmat qiluvchi kichik amaldorlar

toifasini tarbiyalab etishtirish, o'lkada Rossiyaning ruslashtirish siyosatini rejali ravishda amalga oshirish uchun dastlab rus, keyinroq rus-tuzem maktablari ocha boshladilar. O'zbek ma'rifatparvarlari, pedagoglari dastlabki pallada rus va rus-tuzem maktablarini qo'llab-quvvatladilar, o'zlari ham katta sa'y-harakat bilan bunday maktablarni ochishga bosh-qosh bo'ldilar. Sattorxon Abdug'afforov, In'omxo'ja oqsoqol, Sharifxo'ja qozi, Zokirjon Furqat, Muhiddinxo'ja qozi, Saidrasul Saidazizov, Rojij Marg'inoniy, Komil Xorazmiy, Ishoqxon to'ra Ibrat kabilar bunday maktablarning homiylari, o'qituvchilari, hatto faxriy nozirlari ham bo'ldilar. Buning ob'ektiv sabablari bor edi.

## **2.2. Rus-tuzem maktablarida o'qitish mazmuni va usullari**

O'z xalqini zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan bahramand qilish, madrasa dasturiga fizika ilmini kiritish, madrasada fizikadan o'quv laboratoriya tashkil qilish uchun kurash olib borgan va bu masalani general-gubernatorlik darajasiga olib chiqqan Shayxovand Tahur dahasi qozisi Sharifxo'ja Poshshoxo'ja o'g'li rus tilini o'rganish masalasiga ham alohida ahamiyat bilan qaradi. Bu haqda tarixchi-sharqshunos A.I.Dobromislov quyidagilarni yozadi: "1884 yilning 19 dekabrda shaharning mahalliy aholi yashaydigan qismida erliklarning bolalariga ruscha savodni, o'qish-yozishni hamda arifmetikadan to'rt amalni o'rgatish uchun dastlabki rus-tuzem maktabi (Turkiston o'lkasida ochilgan birinchi rus-tuzem maktabi – U.D.) ochildi. Bu maktabning ochilishida katta qiyinchiliklar ro'y berdi va faqat Shayxovand Tahur daha qozisi Sharifxo'ja tufayligina ochildi. Sharifxo'ja ikki o'g'lini, ikki yoki uch nevarasini, uch jiyani va boshqa yaqin qarindoshlarini shu maktabga berdi".

Usuli hijo metodiga asoslangan mahalliy ibtidoiy maktablar ilm-ma'rifatdan shu darajada yiroq ediki, xalq bolalari bir necha yil o'qish davomida zo'r-bazo'r oddiy savodga ega bo'lar edilar ("Mehrobdan chayon" romanidagi Solih Mahdum maktabini, S.Ayniyning "Eski maktab", Mo'minjon Muhammadjon o'g'li – Toshqinning "Eski maktab turmushi yoki Tolib" asarlarini eslang).

General-gubernatorlik mahalliy xalq maorifini rivojlantirishni xayoliga ham keltirmadi, faqat hukumat tasarrufidagi rus va rus-tuzem maktablariga juda kam miqdorda mablag' ajratardi, xalos. Bulardan tashqari, eski mahalliy maktablardagi birgina ruhoniylar ta'lim-tarbiya bilan Vatanni olg'a rivojlantirib bo'lmas edi. O'zbek mutafakkirlari rus-tuzem maktablarini tirg'ib-tashviq qilish ekanlar, faqat millat manfaatlarini ko'zda tutdilar.

O'zbek shoirlaridan Rojij Marg'inoniy ham shahar qozisi sifatida Marg'ilonda ochila boshlagan dastlabki rus-tuzem maktablarini qo'llab-qo'ltiqlagani haqida, bu maktabning xalq uchun keltiradigan foydalari haqida "Turkiston viloyatining gazetisi"da ma'lumot beradi: "Andin keyin hurmatli domullo Xo'jaxon qozi mazkur maktab xonani(ng) fuqarolarga bo'ladurg'on

foydalarini bayon etib, fuqarolar chin ko'ngullari bilan xursand bo'lib, bolalarini berganlari to'g'risida izhori arz qildilar”.

O'zbek ma'rifatparvarlari mahalliy yoshlarning rus va rus-tuzem maktablarida rus tilini mukammal o'rganishi jahon ilm-fani yangiliklarini egallash uchun katta imkoniyatlar yaratuvchi vosita deb bildilar. Bu esa oxir-oqibatda millatning o'zligini tanishga olib kelar edi. Ularning bunday faoliyati chor ma'murlari olib borayotgan siyosatga butunlay zid edi. Shuning uchun ham ismi-shariflari yuqorida tilga olingan ma'rifatparvarlar umr bo'yi ta'qib va tazyiqlardan qutula olmadilar. Bu davrda xalq farzandlari uchun zamon talablariga nisbatan javob bera oladigan boshqa durustroq o'quv muassasasi yo'q edi. Bu haqda Sattorxon Abdug'afforovning kuyunib yozgan so'zlariga e'tibor bering: “O'rusiya tilini o'rganib, alarning kitoblarida o'zlari topkan ilmlar va boshqa xalqdin o'rgangan ilmlarini bizlar ham bilib, tirikligimizga nafi etadurgan ilmlarni bizlar ham o'z foydamizga joriy qilur edik...Men har vaqtda musulmonlarni o'z foydamiz uchun rusiya tilini o'rganmoqlikning zarur ekanligini bayon qilur edim. Ul vaqtlarda Xo'qand xalqi o'shandoq ulug' ishning foydasini chandoni fahmlamas erdilar. Zu'mhol (mutaassib) mullalar ham mening hayriyatimni qilmas edilar. Alarg'a barcha yangi tartiblar begona va vahshiy ko'rinur edilar. Alar ul ahvollarda darvoqe' yaxshi va yomonni(ng) farqiga bormas edilar”.

Ba'zi bir tadqiqotchilar, tarixchi olimlar mustamlakachilar tomonidan ochilgan bu maktablarni qo'llab-quvvatlagan, o'zbek farzandlarini ushbu maktablarga da'vat etgan mahalliy ziyolilarni qattiq qoralaydilar, hatto sotqinlikda ayblaydilar. Ota-bobolarimiz bo'yniga bunday og'ir, ammo noo'rin ayblarni qo'yishdan bir oz bo'lsa-da, o'zimizni tiyishimiz kerak!

Agarda In'omxo'ja oqsoqol, Sharifxo'ja qozi, Muhiddinxo'ja qozilar rus bosqinchilarining malaylari yoki ularga sotilgan bo'lganlarida, 1892 yil Toshkentda yuz bergan milliy ozodlik harakatining-“Vabo qo'zg'oloni”ning rahbarlari sifatida ta'qib qilinib, Toshkentdan badarg'a-surgun qilinarmidilar?! General-gubernatorlikning muassisi “Turkiston viloyatining gazetini”ning 1883-1892 yillarda muharrir yordamchisi va tarjimoni Sattorxon Abdug'afforov shu xalq ozodlik harakati tufayli umrining so'nggi 8-9 yilini ishsizlikda, darbadarlikda o'tkazarmidi?!

Xonliklar davrida va undan keyin ham ilm-ma'rifatdan bebahra bo'lib kelayotgan xalq taqdiri o'zbek ziyolilarini qattiq tashvishga solayotgan edi va rus hamda rus-tuzem maktablaridan o'z xalqi manfaatlarini yo'lida – mahalliy aholi farzandlarini ilm-ma'rifatli qilish yo'lida foydalanishga, ularni chor hukumatining qabih niyatlariga zid keladigan yo'lga asta-sekinlik bilan burib yuborishga harakat qildilar va bunga qisman bo'lsa ham erishdilar. To'g'ri, bu maktablar mahalliy aholidan yuksak malakali mutaxassis yoki keng ma'lumotga ega bo'lgan

kishilarni tarbiyalab etishtirish maqsadini o'z oldiga qo'ygan emas, bunday bo'lishi mumkin ham emas. Akademik V.V.Bartold ma'lumot berishicha, u erdagi o'qitish shu darajada sayoz ediki, buni hatto rus ziyolilari ham e'tirof etar edilar: "Viloyatdagi rus-tuzem va sof ruscha maktablardan hech biri ruscha yozish u yoqda tursin, hatto to'g'ri o'qiy oladigan birorta ham mahalliy xalq kishisini etishtirgani yo'q".

Rus-tuzem maktablarida o'qitish saviyasining bu darajada past ekanligining asosiy sabablaridan biri maktab iqtisodiy bazasining nihoyatda nochor ahvolda ekanligidir. Davlat har bir rus-tuzem maktabining barcha harajatlari uchun bir yilga bor-yo'g'i 700 so'm ajratar edi, xolos. Bunday maktablarning ko'pi maxsus maktab uchun qurilgan binoga ega emas edi, balki badavlatroq kishilarning ijaraga olingan hovlisiga yoki uyining 2-3 ta ortiqcha xonasiga joylashgan edi. Bulardan tashqari, ruscha va o'zbekcha sinf o'qituvchilari deyarli baravar ishlashlariga qaramay, o'zbekcha sinf muallimiga juda oz miqdorda maosh berilar edi, ya'ni rus o'qituvchisining bir yillik maoshi 1000 so'm, o'zbek o'qituvchisining bir yillik maoshi 400 so'm edi.

Shuning uchun ham bunday o'quv yurtlari rahbarlari hukumat ma'muriyati oldiga o'zbek sinflari muallimlari maoshlarini oshirish masalasini qo'ygan edilar. 1887 yilda Farg'ona va Samarqand viloyatlari xalq maktablari nazoratchisi P.V.Prilejaev o'z hisobotida quyidagi fikrlarni bayon qilgan edi: "Mukofot uchun belgilangan 100 so'mni mullaning maoshiga qo'shib berish ma'quldir. Ana shundagina mullaning bir yillik maoshi 220 so'm bo'ladi. Shunday qilinsa, bu vazifaga eng yaxshi kuchlarni jalb etishga imkoniyat tug'iladi. Aks holda yaxshi mullalar moddiy jihatdan ko'proq ta'minlaydigan madrasani tashlab, oz haq to'laydigan rus maktablarida ishlashga u qadar muhtoj emas".

Ba'zi joylarda rus-tuzem maktabi ochish, uning zarur ehtiyojlari uchun mahalliy aholidan pul (shkol puli) yig'ar edilar.

Rus-tuzem maktablari davlat e'tiboridan shu darajada uzoq ediki, bu maktablarning o'zbek guruhlarini darslik bilan ta'minlash masalasi 30 yildan keyin hal etildi. Rus va rus-tuzem maktabi dastlab 1873 yilda Chimkentda ochilgan bo'lsa, bunday maktablar uchun atoqli mutafakkir Saidrasul Saidazizov "Ustodi avval" alifbo darsligini 1902 yilda nashr ettirdi. Rus guruhlar uchun esa S.Gramenitskiyning "Pervaya kniga dlya chteniya", "Vtoraya kniga dlya chteniya", "Tretya kniga dlya chteniya" darsliklari 25 yildan keyingina yaratildi.

Bularning hammasi tasodifiy hol emas, aksincha, rus siyosatdonlarining ehtiyotkorlik bilan, o'ylab amalga oshirgan tadbirlari edi. Chunki Ilminskiy o'z gumashtalariga shunday ta'lim berar edi: "Erli xalq orasida bizning uchun foydali va hech bo'lmaganda, zararsiz kishilar ruscha tilni tutilib, uyalib gapiradigan, ruscha yozganda birmuncha xato bilan yozadigan, bizning

gubernatordan emas, hatto stol boshlig'i (mirzo)mizdan ham qo'rqadigan kishilar bo'lishi lozim".

Lekin shunga qaramasdan, o'zbek ma'rifatparvarlik harakatining atoqli namoyandalari, istiqlool, milliy ozodlik uchun kurashgan, jadidchilik harakatida faol ishtirok etgan mutafakkirlar Saidrasul Saidazizov, Nozimxonim, Hamza, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Botu, Mirmulla hamda Mirmuhsin Shermuhamedov va boshqalar shu rus-tuzem maktablaridan etishib chiqdilar.

Hatto Rossiya imperiyasi davrida ham, sho'rolar imperiyasi davrida ham umri qamoqlarda o'tgan, Turkiston Muxtoriyati hukumatining raisi o'rinbosari advokat Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev ham rus-tuzem maktabini tugatgan.

Ma'lumki, Sattorxon Abdug'afforov 1873 yilda Chimkentda ochilgan ilk rus maktabining birinchi o'zbek o'qituvchisi edi. XIX asrning 80-yillaridayoq rus-tuzem maktablarining asl mohiyatini juda to'g'ri tushungan, uning mustamlakachilik, shovinistik mohiyatini, erli aholini ruslashtirishga qaratilgan siyosatini ochiq fosh qilgan, ushbu maktabni milliy tarbiya zaminida o'zgartirish, asta-sekinlik bilan mustamlakachilar niyatiga zid yo'lga solib yuborish usullarini ishlab chiqqan edi. 1883 yilda Toshkentda Turkiston o'lkasidagi rus o'quv yurtlari muallimlarining 1- qurultoyida Qo'qon shahridagi rus maktabining faxriy noziri sifatida Sattorxon ham ishtirok etdi (Sattorxon Abdug'afforov 1878-1886 yillarda Qo'qondagi rus maktabining faxriy noziri lavozimida ishlagan). U ushbu qurultoyda chor ma'murlarining mahalliy aholini majburan ruslashtirish siyosatini keskin qoraladi va rus maktablariga mahalliy til va musulmon dinidan dastlabki ma'lumot beruvchi muallimlar jalb qilish kerakligini ta'kidladi: "Rus maktablariga musulmon muallimi kiritilib, unga erliklarning bolalarini mahalliy tilga, joyiga qarab, sart yoki qirg'iz tiliga o'rgatish hamda musulmon dinidan boshlang'ich ta'lim berish vazifasi yuklatilsa, u vaqtda mahalliy kishilarning bu maktabga nisbatan hammaga ma'lum va hamma ta'kidlayotgan ishonchsizligi tugatilgan bo'lur edi.

Turkistondagi rus va rus-tuzem maktabining birinchi o'zbek o'qituvchisi Sattorxon Abdug'afforovning bu oqilona fikrlari qurultoy raisi, ruslashtirish siyosatining Turkiston o'lkasidagi ashaddiy namoyandalaridan biri M.A.Miropievning keskin qarshiligiga uchradi. U Rossiya maorif vaziri D.A.Tolstoyning "Turkiston o'lkasidagi davlatga qarashli maktablarda musulmon dini ham, musulmon tili ham o'qitilmasligi kerak" degan nizomiga yopishib olgan holda Sattorxonga qarshi o'zining shovinistik qiyofasini ko'rsatuvchi, umuman, rus ma'murlarining Turkiston xalqlarini ruslashtirish siyosatini ifodalovchi quyidagi fikrini bayon qilishdan uyalmadi: "O'z dinida mutaassiblikning mavjudligini inkor qiluvchi musulmonlarga ishonmaslik kerak.

Sattorxon Abdug'afforov Chimkentda ilk bor ochilgan rus maktabida o'qituvchilik qilgan, Qo'qonda rus maktabining faxriy noziri bo'lib ishlagan yillarda mahalliy aholi o'rtasida rus tilini o'rganishga da'vat etishdek, xalq farzandlarini rus-tuzem maktablariga ko'proq jalb etishdek muhim masalaga bosh bo'lish bilan birga, birinchi o'zbek jurnalisti, publitsisti sifatida xalqni nodonlikda saqlashga qaratilgan mustamlakachilarning munofiq siyosatini, mutaassiblarning johilligini ochib tashlovchi turkum maqolalar bitdi. Shu ma'noda uning "Bir chimkentlik musulmon o'tgan vaqtlarni yodig'a olib yozgani" turkum maqolalari muhim ahamiyatga ega.

Gubernatorlik ma'murlari rus-tuzem maktablarida islohot o'tkazib, uning o'zbek sinflaridagi ta'lim-tarbiya ishlarini bir oz bo'lsa-da, milliyalashtirishdan V.V.Bartold so'zi bilan aytganda: "Mahalliy xalqqa o'z ona tilida ko'proq ma'lumot berishdan va bu bilan mahalliy xalqni ruslashtirish ishiga zarar etkazib, mahalliy adabiyot va madaniyatning qattiq o'rnashib qolishidan qo'rqqan edilar".

Rus-tuzem maktablarining ochilishiga rus ma'murlari, missionerlarining o'zlari katta shubha va hadik bilan qaradilar, rus ma'murlarini bunday maktablarga erli aholi farzandlarini jalb qilish katta tashvishga soldi. Bu maktablarni ochishdan rus ma'murlarining ko'zda tutgan maqsadlaridan qat'i nazar, erli aholining ko'zi ochilishi mumkin, degan tashvish ularni bezovta qilgan, hatto bunday maktablarni ochmaslik, erliklarni iloji boricha ma'rifatdan, ma'naviyatdan uzoqda saqlash kerakligini qayta-qayta ta'kidlovchilar oz emas edi.

O'zbek, fors, arab tillarini, adabiyotini ancha mukammal bilgan, o'zbek mutafakkirlari Havoiiy – Umidiy, Xo'jajon qozi Rojiiy, Furqatlar bilan yaqin aloqada bo'lgan, sharq qo'lyozmalaridan katta kolleksiya vujudga keltirgan va Sankt-Peterburg Sharq qo'lyozmalari institutiga topshirgan, 20 yil davomida Rossiyaning Qoshg'ardagi bosh konsuli lavozimida ishlagan, missioner N.Ostromovning yaqin hammaslagi N.Petrovskiy rus va rus-tuzem maktablarining ochilishiga keskin qarshi chiqqan edi. U 1887 yil 23 iyunda N.Ostromovga yo'llagan maktubida Turkiston o'lkasida birin-ketin ochilayotgan rus va rus-tuzem maktablaridan tashvishlanib, quyidagilarni yozadi: "Hamma erda musulmonlar uchun ochilayotgan maktablar (rus-tuzem maktablari ko'zda tutilmoqda – U.D.) nima o'zi? Ma'nilik ishmi yoki behuda ishmi? Xo'jako'rsingami yoki jiddiy narsami? Bilishni istardim. Birinchisi to'g'ri bo'lsa kerak, degan xavotirdaman. Agar maktablar oldindan ko'zlangan maqsadsiz, oqibati nimaga olib kelishini o'ylamasdan ochilayotgan bo'lsa, ularni ochmaslik ma'qul. Keyin borib pushaymon bo'lib qolmaylik".

Rus bosqinchilarining bu faoliyati XIX asrdayoq rus siyosatdonlari tomonidan rejalashtirilgan edi. Bu haqda Rossiya maorif vaziri D.A.Tolstoyning 1870 yilda yozgan

soʻzlariga eʼtibor bering: “Bizning vatanimizda yashovchi barcha begona (rus boʻlmagan) xalqlarning maʼlumotli boʻlishining oxirgi maqsadi, shubhasiz, ularni ruslashtirish va rus xalqi bilan birlashtirishdan iborat boʻlishi kerak”.

Rus-tuzem maktablarining oʻta reaksiyon mohiyatini hatto rus siyosatdonlarining oʻzlari ham eʼtirof etganlar. Turkistonda 43 yil faoliyat koʻrsatgan, rus-tuzem maktablarining tashkilotchisi va birinchi oʻqituvchisi V.P.Nalivkin (1852-1918) soʻzlariga eʼtibor bering: “Oʻlkada rus-tuzem maktablari deb nomlanuvchi, oʻta foydali deb bilgan muassasalar tarmogʻini kengaytirishga qaratilgan proektni amalga oshirishga kirishganimizga 20 yildan oshdi. Bu sohada biz qoʻlimiz bilan boʻlmasa-da, ammo bizning xohishimiz bilan juda koʻp iflos va axloqqa zid ishlar amalga oshirildi. 20 yil davomida bu maktablardan bir necha ming mahalliy bolalar chiqdi: ularning bir qismi maktabni bitirmay qochib ketdi, qochib ketyapti. Natija shu boʻlyaptiki, ulardan na rus hukumati uchun, na mahalliy jamiyat uchun biror foydali ish chiqayotgani yoʻq, menimcha, chiqmaydi ham”.

Ismoilbek Gasprali 1881 yildayoq “Rusiya musulmonligi” asarida rus-tatar maktablarining (Turkiston oʻlkasidagi rus-tuzem maktablarining Tatariston va Qrimdagi koʻrinishi – U.D.) oʻqish-oʻqitish, taʼlim-tarbiya metodlaridan tortib, maqsad-maslagigacha keskin fosh etgan edi: “Tatarlar uchun ochilgan rus maktablari oʻlik tugʻilgan muassasaning oʻzginasidirki, buni ushbu maktabning nazariyasi va amaliyoti yaqqol isbotlab turibdi”. Bunday maktablar oʻlkada yil sayin koʻpayib, 1917 yilda 167 ga etgan edi.

Ilminskiy tizimi asosida ochilgan maktablarning ruslashtirish mohiyatini deputat G.Sh.Enikeev 1908 yilda Rossiya Davlat Dumasi minbaridan turib tanqid qilgan edi: “Janoblar! Musulmonlar hozirgi vaqtda adolat, insoniylik tuygʻulari bilan Davlat dumasidan talab qiladilar: missionerlik maorif sohasidan olib tashlansin, ruslashtirish tizimi bekor qilinsin, maktablar aql-idrokka, pedagogik zaminga asoslansin. Biz bu oʻrinda Maorif vazirligi tomonidan musulmonlar uchun Ilminskiy tizimi asosida tashkil qilingan maktablar haqida gapiryapmiz. Bu maktablar hech qachon musulmon aholisining eʼtiborini ham, ishonchini ham qozona olmaydi, chunki ular maorifning tub maqsadlariga xizmat qilmaydi.

Mana shunday oʻta ogʻir sharoitda oʻzbek mutafakkirlari rus-tuzem maktablarini oʻz maqsadlariga boʻysundirishga harakat qildilar. Shuni alohida taʼkidlash kerakki, Saidrasul Saidazizov (1866-1933) XIX asrning 80-90-yillarida etishib chiqqan, 1-rus-tuzem maktabini bitirgan va unda muallimlik qilgan, oʻzbek pedagogikasi tarixida usuli savtiya metodiga asoslangan “Ustodi avval” birinchi barqaror alifbo darsligini yaratgan, oʻzbek pedagoglari orasida oʻquv-tarbiya sohasida dastlabki islohat oʻtkaza olgan metodist-olim hamdir. Uning “Ustodi avval” alifbo darsligi taʼsirida XX asrning birinchi choragida tovush metodiga

asoslangan jadid maktablari uchun o'ndan ortiq alifbo darsliklari yaratilgani ma'lum. Saidrasul Saidazizovning bu faoliyati mahalliy mutaassiblarning keskin qarshiligiga uchradi, ular mutafakkirni “nasoro maxzum” (“kofir maxzum”) deb jar soldilar. Shunga qaramasdan, muallifning ushbu darsligini XX asr pedagoglari katta mamnuniyat bilan kutib oldilar, u rus-tuzem maktablaridan tashqari, usuli qadim va usuli jadid maktablarida ham keng qo'llana boshladi. Bu haqda “Turkiston viloyatining gazeti” da e'lon qilingan maqolalarda, Mo'minjon Muhammadjon o'g'li – Toshqinning “Turmish urinishlari” asarida yaqqolroq ko'rish mumkin.

Rus-tuzem maktablarining o'zbek guruhlarida ta'lim-tarbiya xuddi eski maktablardagi kabi ibtidoiy sharoitda qolib kelmoqda edi. Rus sinflarida belgilangan dars soatlarini o'tib bo'lishlari bilan o'quvchilar qo'shni xonaga – o'zbek sinfi o'qituvchisi ixtiyoriga o'tadilar. O'zbek o'qituvchisi mahalliy eski maktabda o'qitiladigan hamma fanlardan dars beradi. O'zbek o'qituvchisining darsi davomida rus o'qituvchisi singdirishga harakat qilgan hamma narsa bekorga ketadi. O'zbek sinfidagi sharoit xuddi eski maktablardagidek: o'quvchilar rus sinfida partalarda o'tirsalar, o'zbek sinfida kigiz yoki namat ustida o'tiradilar; hech qanday darslik, o'quv jihozlari, o'quv qo'llanma yo'q, dars eski usulda arabcha diniy matnlarni quruq yodlash asosida olib boriladi. Rus-tuzem maktablarining o'zbek sinflarida (Saidrasul Saidazizovning “Ustodi avval”, Bayramali Kalininning “Muallimi soniy” asarlari chiqqunga qadar) maxsus dastur, darslik yoki o'quv qo'llanmalar, hatto predmetlarning nomlari ham ko'rsatilmagan.

1892 yildan e'tiboran Sirdaryo viloyat xalq o'quv yurtlari inspektori lavozimida ishlagan S.M.Gramenitskiy rus-tuzem maktablarida o'qitish usullarini birmuncha isloh qilishga harakat qildi. Bu maktablarda o'qitishdagi o'zbekcha so'zlarni ruscha transkripsiyada berishga asoslangan N.Ilminskiy tarjima metodining yaroqsizligini, shuning uchun ham rus-tuzem maktablari o'zbek xalqi o'rtasida e'tibor qozona olmaganligini ta'kidlaydi.

Ilminskiy faoliyatidan ma'lumki, u 1873 yildayoq turkiy xalqlarni arab alifbosidan voz kechib, alohida yozuv tizimiga o'tkazishni taklif qilgan va bunda u turkiy xalqlar uchun kirill yozuvini joriy qilish taklifi bilan chiqqan edi. Bu madaniyati, tili, dini, tarixi bir ildizga ega bo'lgan turkiy millatlarni parchalab yuborishning birdan-bir yo'li edi. Bu tadbirni amalga oshirish uchun u qozoq pedagogi Ibroy Oltinsarin faoliyatidan foydalangan va Turkistonda 1884 yildan ochila boshlagan rus-tuzem maktablariga ham tatbiq qilgan edi. Bu tadbir arab yozuvidan voz kechishning birinchi bosqichi edi. Chor Rossiyasi va Turkiston general-gubernatorligi 40 yildan ortiq vaqt davomida bu masalani amalga oshira olmadi, ammo sho'rolar hukumati O'rta Osiyoni 1924 yilda besh respublikaga parchalab tashlaganidan keyin o'z ularni arab alifbosidan lotin va asosiy maqsad – kirill alifbosiga o'tkazish kampaniyasini nihoyatda tezkorlik bilan boshlab yubordi.

S.Gramenitskiy rus-tuzem maktablarida o'qitishning asosiy usuli bo'lmish Ilminskiy tarjima metodini inkor qilish bilan u mahalliy bolalarni ruscha o'qish, yozish va erkin gaplashishga o'rgatish uchun darslarni faqat rus tilida ko'rgazmalar asosida olib borish usulini ishlab chiqadi va quyidagi masalalarga ahamiyat berishni ta'kidlaydi: “Rus tiliga o'rgatayotgan vaqtda tushunish, ko'z oldiga keltirish qiyin so'zlar bo'ladi, o'qituvchi bunday so'zlarni o'quvchilar qay darajada to'g'ri tushunganligiga shubhalanadi. Shunday vaziyatdagina ushbu tushunchaning nomini mahalliy tilda faqat bir marta aytish mumkin. Masalan, o'qituvchi “nebo” so'zini o'quvchilar to'g'ri tushunganligiga shubhalansa, “nebo – osmon” deb tarjimasini bir marta aytadi, boshqa vaqtda faqat ruschasini qo'llaydi. Asosiy maqsad shundaki, o'quvchi zaruratsiz ona tilini suiiste'mol qilishga odatlanmasin, boshidan ruscha so'zlarni eshitish va gapirishga o'rgansin”. Bu uning til o'qitish metodikasining o'ta nozik jihatlarini ancha mukammal biluvchi pedagog ekanligini ko'rsatadi.

Ammo S.Gramenitskiyning bu harakatlari Ilminskiy g'oyasining Turkistondagi amaliyotchilari N.Ostroumov, o'sha vaqtdagi Turkiston o'qituvchilar seminariyasining direktori M.A.Miropiev, seminariya pedagogika soveti ilmiy kotibi I.M.Sofiyskiylarning keskin qarshiligiga uchradi. Masalaning murakkab tomoni shunda ediki, rus-tuzem maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlaydigan birdan-bir Turkiston o'qituvchilar seminariyasida Ilminskiyning ruslashtirishga asoslangan metodi ustuvor edi. Gramenitskiy metodini joriy qilish seminariyada ham tub o'zgarishlarni talab qilar edi.

S.Gramenitskiyning 3 darsligi yaratilgunga qadar 14 yil rus-tuzem maktablarida turli xil darslik va qo'llanmalardan foydalanib kelindi. Samarqand oblast harbiy gubernatori graf Rostovtsev o'quv yurtlari bosh inspektori Kerenskiyga quyidagilarni yozgan edi: “Rus-tuzem maktablarini kuzatishim davomida men rus tilini o'qitishda yorqin muvaffaqiyatni ko'rmadim. Buning asosiy sababi rus tili darsliklarining yaroqsizligidir. Ko'plab narsa-buyumlarning nomlari erlik o'quvchilar uchun begona”. Bu juda to'g'ri hol edi.

1897 yilda Turkiston o'quv yurtlari bosh inspektori Kerenskiy topshirig'iga binoan S.Gramenitskiy o'zi tavsiya qilgan metod asosida rus-tuzem maktablari uchun maxsus dastlabki darsliklarni yaratishga kirishdi. 1898 yildan boshlab uning “Pervaya kniga dlya chteniya”, “Vtoraya kniga dlya chteniya”, “Tretya kniga dlya chteniya” darsliklari bosmadan chiqdi. Gramenitskiy darsliklari asosida rus-tuzem maktablarida rus tilini o'qitish uchun quyidagi dastur joriy qilindi:

birinchi yil: ko'rgazma asosida o'quvchilarni o'rab turgan jihozlarni og'zaki o'rganish: sinf jihozlari, uy hayvonlari, insonning asosiy a'zolari, o'ngacha bo'lgan sonlar, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or anjomlari; hovli, ko'cha, bozorning qisqacha tasviri; qarindoshlar, hafta kunlari

nomlarini ifodalovchi ruscha soʻzlar (S.Gramenitskiyning “Pervaya kniga dlya chteniya” darsligining birinchi qismi asosida).

Rus alifbosini rus soʻzlari asosida oʻrganish, harf elementlari, kichik va yozma harflarni, oʻrganilgan ruscha soʻzlarni yozish.

Ikkinchi yil: Bogʻ, poliz, bozor va dala tasviri; oʻsimliklar, meva va sabzavot; asosiy narsa-buyum hamda oʻlchovlar, hunarmandchilikka oid buyumlar, oy va yillar tasviri. Oʻrganilgan soʻzlar asosidagi maqolalarni oʻqish va soʻzlab berish (S.Gramenitskiyning “Pervaya kniga dlya chteniya” darsligining ikkinchi qismi asosida).

Yoʻl-yoʻlakay yangi, nomaʼlum soʻzlarni tushuntirish orqali oʻquvchilarni oʻrab turgan muhit, jihozlar nomlari ishtirokida bogʻlangan hikoyalar oʻqitish; maktab, uy, bogʻ jihozlari, uy hayvonlari hayotiga oid matnlarni savollar asosida hikoya qilish (S.Gramenitskiyning “Vtoraya kniga dlya chteniya” darsligining 1-45-§lari asosida). Oʻrganilgan ruscha soʻzlar, iboralar, maqolalarni koʻchirib yozish.

Uchinchi yil: Shahar, qishloq, dala sharoiti haqida hikoya qilish; vahshiy hayvonlar va ularning hayotini tasvirlovchi hikoyalarni oʻrganish, choʻl, oʻrmon, togʻ va daryolar tasviri, vatan haqida tushuncha (S.Gramenitskiyning “Vtoraya kniga dlya chteniya” darsligi asosida).

Yozma mashqlar berilgan savollarga oʻrganilgan matnlar asosida toʻliq javoblar shaklida boʻlishi, oʻquvchilar javoblar uchun soʻzlarni oʻz kitoblaridan topishlari kerak. Oʻquv yilining ikkinchi yarmida bu mashqlarga koʻrish xotirasiga asoslangan diktantlar ham qoʻshiladi. Bunday diktantlar baʼzi bir tovushlar oʻrganishi, ularning yozilishi kabi qoidalarga asoslanadi (S.Gramenitskiy “Tretya kniga dlya chteniya”, 1-20-§lar asosida).

Toʻrtinchi yil: Nisbatan kengroq koʻlamli hikoya hamda tavsiflarni oʻqish va soʻzlab berish; Rosiyaning qisqacha geografiyasi, Turkistonning geografiyasi bilan tanishtirish, Rossiya tarixiga oid asosiy voqealarni singdirish.

Eng muhim imlo qoidalariga bagʻishlangan ogʻzaki diktant. Oʻquv yilining ikkinchi yarmida oʻqilgan hikoyalar boʻyicha savollar asosida bogʻliqli bayonlar mashq qildirish (S.Gramenitskiyning “Tretya kniga dlya chteniya” darsligi asosida).

4 yillik oʻqish tugagach, quyidagi dasturni oʻz ichiga olgan, maktabni bitiruv imtihoni uyushtirilgan:

1. Ruscha oʻqish va oʻqiganini qayta hikoya qilish.
2. Oʻrganilgan sheʼr, masal yoki nasriy parchani yoddan oʻqish.
3. Ruscha jumalarni aytib turib yozdirish.

4. Atrof-muhit, rus tarixi, geografiyasiga oid savollarga ruscha javob berish.

5. To'rt amalga oid arifmetik masala va misollarni og'zaki va yozma echish, millionga qadar sonlarni aytib turish asosida yozish; uzunlik, og'irlik, vaqt, pul o'lchovlarini ruscha bilish.

6. Musulmoncha o'qish.

7. Rus podshohiga omonlik tilovchi "Boje, sarya xrani" madhiyasini xor bo'lib o'qish.

Shuni unutmaslik kerakki, Gramenitskiy Ilminskiyning tarjima metodiga (o'zbekcha so'zlarni ruscha transkripsiyada berishga) qarshi chiqqani bilan rus mustamlakachilarining, general-gubernatorlikning o'lka xalqlarini ruslashtirish, umuman, mustamlakachilik siyosatiga zarracha putur etkazish niyatidan yiroq edi. Uchala darslik bilan tanishar ekanmiz, ularda Rossiyaning Turkiston o'lkasida abadiy hukmronlik qilish siyosati ustuvor ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu islohotlardan keyin rus-tuzem maktablari va ularda o'qiydigan o'quvchilar soni ancha oshdi, buni quyidagi jadvaldan yaqqolroq ko'rish mumkin.

Ma'lumki, Vatanga, millatga muhabbat tuyg'usi eng muqaddas, eng mo'tabar tuyg'udir. Shuning uchun ham Vatanni Onaga mengzaydilar. Vatan tuyg'usi, asosan, o'quvchilarga darsliklar, Vatan haqidagi go'zal badiiy asarlar orqali singdirib boriladi. Vatanga, xalqqa, tilga muhabbat ruhini singdirish maktabdan boshlanishini yaxshi bilgan Gramenitskiy o'quvchilarni bunday muqaddas tuyg'ulardan uzoq saqlash vazifasini o'z oldiga qo'ygan. O'zbek bolalari uchun yaratilgan ushbu muallif darsliklarida Rossiya vatan sifatida talqin qilinadi, uning shaharlari, qishloqlari ta'rif-tavsif etiladi va unga nisbatan muhabbat ruhini singdirishga harakat qilinadi. Uchala darslikni varaqlar ekansiz, ularda Turkiston, Turon, Movarounnahr nomlari bilan atalgan Vatanimiz, uning tabiati, go'zalligi haqida, o'quvchilarda vatanparvarlik ruhini shakllantirishga qaratilgan birorta matn berilgan emas. Bu, albatta, tasodifiy hol emas, rus-tuzem maktablarining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan. "Vtoraya kniga dlya chteniya" darsligida maxsus 9-bob vatan haqida. Ushbu bobdagi "Nashe otechestvo" matnini to'liq keltiramiz:

### **Nashe otechestvo**

Nashe otechestvo Rossiya. Ona est samoe obshirnoe gosudarstvo v mire. V nem est mnogo morey i bolshix rek; est gorod', stepi, polya i lesa, v nix jivut to'syachi to'syach lyudey.

Upravlyayut gorodami i derevnyami i nablyudayut za poryadkom v nix razno'e nachalniki: v malo'x gorodax – uездno'e nachalniki, v bolshix gorodax – gubernatoro'. Glavno'y nachalnik selogo kraya est general-gubernator.

Vserossiyskoyu zemleyu upravlyaet EGO IMPERATORSKOE VELICHESTVO GOSUDAR IMPERATOR (hammasi katta harfda – U.D.) Vserossiyskiy. On naznachaet vse nachalnikov i sudey, koto`e delayut rasporyajeniya i tvoryat sud ot Ego imeni.

Russkiy Belo`y Sar zabolitsya o nujdax i blagodenstvii vse svoix podanno`x, zahiaet i oberegaet russkie zemli ot vragov. Po Ego veleniyu ustraivayutsya dorogi i mosto`, stroyatsya goroda i zdaniya, otkro`vayutsya shkolo` i bolnitso`. On pomogaet bedno`m i bolno`m i postoyanno zabolitsya o svoix podanno`x. I mo` vse doljno` zabolitsya o tom, chtobo` vsemi silami pomogat svoemu Gosudaryu, kak ego verno`e podanno`e, i ispolnyat ego poveleniya. On, kak dobro`y otets, lyubit svoix podanno`x i, kak strogiy otets, nakazo`vaet tex, koto`e narushayut obhiy mir i spokoystviya i vredyat blagodenstviyu Rossiyu.

Ushbu matn ustida ishlash uchun quyidagi savollar berilgan:

1. Veliko li nashe otechestvo?
2. Chto v nem est?
3. Kto u nas nachalniki?
4. Kto upravlyaet Rossiey?
5. Kak mo` doljno` jit?

Ushbu savollar bo`yicha o`qituvchi suhbatlar uyushtirgan.

Savollar oxirida quyidagi rus xalq maqollari berilgan:

Bez Boga svet ne stoit, bez Sarya zemlya ne pravitsya. Boga boysya, Sarya chti.

“Nashe otechestvo” matni biror yozuvchi yoki shoirniki emas, uni S.Gramenitskiyning o`zi tuzgan. Undan keyin Moskva shahri ko`rinishini aks ettiruvchi rasm berilgan va ostiga “Vid goroda Moskvu` – drevney stolitso` russkogo gosudarstva. Moskva – serdtse Rossii”.

Ushbu matndan keyin rus shoiri Nikitinning Rossiya va pravoslav dinini ulug`lovchi katta hajmda “Rus” she`ri berilgan. Unda shunday misralar bor:

Eto to`, moya

Rus derjavnaya,

Moya rodina

Pravoslavnaya!

Nikitinning “Rus” she`ridan keyin shoir V.A.Jukovskiyning rus podshohi va uning avlodlarini ulug`lovchi she`ri berilgan:

Slava na nebe solntsu vo`sokomu –  
 Na zemle Gosudaryu Velikomu!  
 Slava na nebe utru prekrasnomu –  
 Na zemle Gosudaro`ne laskovoy!  
 Slava na nebe yasnomu mesyatsu –  
 Na zemle Gosudaryu Nasledniku!  
 Slava gromam, gremyahem na nebe –  
 Slava xrabromu russkomu voinstvu!  
 Slava na nebe vsemu luchezaomumu -  
 Slava Russkomu Sarstvu Velikomu!  
 Vesilisya to` solntse nebesnoe –  
 Mnogie leta Saryu Blagovernomu!

S.Gramenitskiy rus-tuzem maktablarining mohiyatidan kelib chiqqan holda iloji boricha mahalliy xalq tili, urf-odati, madaniyati va tarixi, buyuk ajdodlari haqida ma'lumot bermaslikka harakat qiladi, ayniqsa, mahalliy tilga nihoyatda bepisandlik bilan qaraydi. Missioner-shovinistlar kabi turkiy tilni adabiy til sifatida shakllanmagan deb biladi: “Etarli shakllanmagan sart tili so`zlarini ruscha transkriptsiyada berish o`quvchilarning ruscha talaffuzini buzishga olib keladi va ruscha savodxonlikka salbiy ta'sir ko`rsatadi”, - deb yozadi Gramenitskiy.

O`zbek bolalari uchun tuzilgan uchala darslikda mahalliy xalq hayotini aks ettiruvchi birorta ham asar berilmagan. Berilgan rasmlar, hatto qishloq hayotiga bag`ishlangan rasmlar ham rus hayotidan olingan. S.Gramenitskiyning “Tretya kniga dlya chteniya” darsligini ham metodik, ham mavzu jihatidan ancha chuqur o`rgangan olim Yo`ldosh Abdullaev juda to`g`ri ta'kidlaganidek: “Gramenitskiyning o`qish kitoblari rus-tuzem maktablari bolalari uchun tuzilgan bo`lishiga qaramay, Turkiston o`lkasi haqida juda oz ma'lumot berilgan, chunonchi, 182 betli “Tretya kniga dlya chteniya”da Turkiston haqida bor-yo`g`i ikkita tekst bor

xolos”. Yo`ldosh Abdullaevning ushbu fikrlarini S.Gramenitskiyning boshqa ikki darsligi haqida ham aytish mumkin.

1898 yil Dukchi eshon voqeasi – butun Turkiston o`lkasini larzaga solgan Andijon qo`zg`oloni –gubernatorlikning o`lkada o`tkazayotgan maktab siyosatiga birmuncha o`zgarishlar kiritishga majbur etdi. Mustabidlar o`lka xalqlari to`la zanjirband qilindi, endi ular hech qachon erk, mustaqillik uchun bosh ko`tara olmaydilar, degan fikrlarini puchga chiqardi.

Mustamlakachilar mazlum xalqni jaholatda, nodonlikda asrash ularga oz bo`lsa-da, ma`rifat nuridan bahramand qilishdan ko`ra xavfliroq ekanini tushundilar, johil, nodon olomon nihoyatda xavfli kuch ekanligiga ishonch hosil qildilar. Oz bo`lsa-da, ma`rifat berish, ruslarga nisbatan munosabatni yaxshilash maqsadida cheklangan holda ruscha ta`lim berish, bu bilan ruslashtirish siyosatini kuchaytirish maqsadini o`z oldilariga qo`ydilar. Buning uchun o`lkada mavjud bo`lgan birdan-bir o`zbek tilidagi “Turkiston viloyatining gazetasi”dan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bildilar. Ushbu gazetaning o`sha davrdagi boylamlarini varaqlar ekansiz, ruslarni, ularning madaniyatini, Rossiya davlatining harbiy qudratini ulug`lovchi turkum maqolalarga ko`zingiz tushadi. Maqsad bitta – Rossiyaning ulug` davlat sifatida xalq ongiga singdirish, o`lka xalqlarini unga mutelikda saqlash edi. Andijon qo`zg`oloni munosabati bilan A.B.Vrevskiy o`rniga kelgan Turkistonning yangi general-gubernatori S.M.Duxovskiy ushbu qo`zg`olonni qoralab, xalqni dahshatga solish maqsadida aytgan quyidagi so`zlariga e`tibor bering: “Aqldan ozgan kishigina ulug` podshohimizning tutgan yo`liga qarshi harakat qilish xayolida bo`lishi mumkin! Uning qudrati shu qadar ulug`ki, uning bir og`iz so`zi bilan ikki haftadan so`ng Turkiston shu qadar qo`shin bilan to`ladiki, har bir volostga bittadan batalon qo`yish mumkin bo`ladi”.

Gazeta sahifalarida sxolastik ta`lim-tarbiya tizimini tanqid qiluvchi, usuli savtiya metodining afzalliklarini targ`ib qiluvchi maqolalar ham bot-bot ko`rina boshladi. Ruslashtirish siyosatini amalga oshirishda asosiy vosita bo`lib kelayotgan rus-tuzem maktablari tarmog`ini kengaytirish, undagi o`qitish usullariga birmuncha isloh kiritishga majbur bo`ldilar, ba`za joylarda ushbu maktablar uchun maxsus o`quv binolari ham qurildi. Rus-tuzem maktablarining musulmon guruhlarida o`quv-tarbiya ishlarini nazorat ostiga olish maqsadida o`zbek tilida alifbo darsligi yaratish masalasi qo`yildi. 1898 yilda general-gubernator Duxovskiy ushbu vazifani Toshkent shahar 1-rus-tuzem maktabining musulmon guruhi o`qituvchisi Saidrasul Saidazizovga topshirdi.

Turkiston general-gubernatorligi mahalliy xalq o`rtasida rus-tuzem maktablarining e`tiborini oshirish, ularda ruslarga nisbatan iliq munosabatni vujudga keltirish va ayniqsa, Rossiya davlatining qudratini namoyish qilish maqsadida rus-tuzem maktablari o`quvchilarining Sankt-Peterburg, Moskva va boshqa shaharlariga o`quv-ta`limiy sayohatlarini amalga oshirdi. Mana shunday sayohatlardan birinchisi general-gubernator Duxovskiyning maxsus ko`rsatmasi va rejasiga asosan amalga oshirildi. Gubernator avval Sankt-Peterburgdagi katta mansabdor shaxslar – harbiy va xalq maorifi vazirlari bilan kelishib olib, ularga sayohatning Rossiya manfaatlari uchun qanchalar ahamiyatini tushuntirgan. Ushbu sayohat 1899 yilning yoz oylari amalga oshirilgan va ikki oy davom etgan. Duxovskiy buyrug`iga muvofiq Turkiston o`lkasining

hamma viloyatlaridan 18 o'quvchi yig'ilgan, sayohatga Samarqand shahar rus tuzem maktabi o'qituvchisi Lapin rahbarlik qilgan.

“Turkiston viloyatining gazetisi” 1899 yil 3 iyul 25-sonida o'quvchilarning Peterburgga ketgani haqida qisqa xabar va sayohat taassurotlarini to'liq berib borish haqida ma'lumot beradi. Darhaqiqat, gazetaning 1899 yil 37, 38, 39, 40, 44, 45, 46-sonlarida “Turkiston o'lkasi musulmon bolalarining 1899 yilda Moskva va Peterburg sayohati bayoni” (sarlavha rus tilida “Opisanie puteshestviya detey musulman iz Turkestanskogo kraia v Moskvu i Peterburg v 1899 g.” – U.D.) sarlavhasi ostida ancha katta maqola Muhiddinxo'ja eshon o'g'li imzosi bilan e'lon qilingan. Oldindan kelishilganidek, bolalarni hamma joyda ehtirom bilan kutib oladilar, sayohatning ikkinchi kuni juma namozini Peterburgning jame' masjidida o'qiydilar. Shaharning diqqatga sazovor joylarida: Petropavlovsk qal'asida, Pushkin o'qigan podshoh litseyida, muzeylarda, zavodlarda va hatto har kim kirishi mumkin bo'lmagan imperator xonadonida, harbiylar mashqi jarayonlarida bo'ladilar, ular bilan shaxsan harbiy vazir Kuropatkin uchrashdi, “nasihat” qildi. Bu haqda gazeta quyidagilarni yozadi: “Sakkizinchi kuni borib, voenniy ministr general-leytenant Kuropatkin janoblarini ko'rmoq bo'lib, mazkur janobni uylarida kutub turganimizda bir general kelib bizlarni bir zol uyga boshlab olib kirdilar va ikki ad'yutantlari ham bor edi va ul holda o'shal baland martabali vaenniy ministr o'zlari marhamat aylab, uylaridan chiqib, bizlarni har qayularimiz bilan so'rashib, ba'd az an o'rtada turub dedilarki: “Jame' mamlakatlardagi kishilarni va ra'iyatlarni baland otalari podshoh bo'ladur va biz Rusiya fuqarolarining ham baland otalari podshohi a'zam imperatorimizdurlar. Shul sababli hammamiz bir-birimizga og'a-inilik darajasidadurmiz va yana ushbu taraflarni sayohat aylaganlaringizg'a ko'p xursand bo'ldum va ushbu taraflarda ko'rganlaringizni o'z viloyatlaringizdagi kishilarg'a kamokon bilan qilursizlar va yana ko'rmagan joylaringizni tamosho aylab ko'runglar”, - deb uch yuz so'm aqcha bizlarga in'om ayladilar”.

Gubernatorlik ma'murlar ushbu boshlang'ich rus-tuzem maktablarini har qancha rag'batlantirmasinlar, xalq hayotiga singib keta olmadi. Ayniqsa, usuli jadid maktablarining faoliyati keng ko'lam kashf etgach, unga ehtiyoj ham yo'qolib bordi. Buning asosiy sababi bu maktablarning “sut bilan kirgan”, ming yillar davomida millatning qon-qoniga singib ketgan ma'naviyatini, tarixini, tilini yo'q qilishga qaratilganligidadir.

## XULOSA

Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olinguniga qadar xonliklar ma'muriyatida maktablarning faoliyatini, o'quvchilarning maktablarga borishini nazorat qiluvchi a'lam, muxtasib, rais lavozimlari bo'lgan. Ayniqsa, muxtasib va raislar bolalarini maktabga bermagan otalarni qattiq jazolagan, ular vaqti-vaqti bilan masjidlar qoshidagi maktablarga, o'z uyida tashkil qilingan maktablarga borib, ularning faoliyatini tekshirib turgan. Ammo o'lka Rossiya mustamlakasiga aylangach, mahalliy maktablar hukumat e'tiboridan butunlay chetda qoldi, mahalliy maktablarni ham qisman iqtisodiy jihatdan ta'minlab turgan vaqf mulklari to'la hukumat tasarrufiga o'tdi, a'lam, muxtasib, rais lavozimlari bekor qilindi. General-gubernatorlik ma'muriyati K. P. Kaufmanning buyrug'iga binoan mahalliy maktablarning ham iqtisodiy, ham ma'naviy sharoitlariga aralashmaslik, shu yo'l bilan mahalliy maktablarning o'zini-o'zi barbod qilish siyosatini olib bordi. Shunday og'ir sharoitda ham eski maktablar o'z faoliyatlarini to'xtatmadi, aksincha, ularning soni ortib bordi, bu maktablarni iqtisodiy jihatdan xalq ta'minladi. Chor Rossiyasining ruslashtirish siyosatining Turkistondagi eng yirik nazariyotchisi va amaliyotchisi N.Ostroumov general Kaufmanning bu sohadagi siyosatini qo'llab shunday yozadi: "General K. P. Kaufmanning erli aholi ruhoniyligi va ta'limiy hayotiga aralashmaslik nuqtai nazarini to'la qo'llab-qo'ltiqlovchi kerak. Shunda erli aholi g'ayri-ruslar uchun ochilgan maktablarimizda o'z bolalarini rus bolalari bilan birga o'qitishga majbur bo'ladilar".

Har qanday vaziyatda ham Sharqda ta'lim-tarbiya maskanlari, xususan, maktablar davlat arboblari, ulug' mutafakkirlar e'tiborida bo'lgan. Shu nuqtai nazardan, XIX asrda faoliyat ko'rsatgan donishmand murabbiy Vojid Ali Mujmalining "Matla' ul-ulum va majma' ul-funun" ("Ilmlar boshi va fanlar yig'ini", 1267 yil hijriy, 1851 yil milodiy) asari e'tiborga sazovor. Muallif o'z asarida islom mamlakatlarida asrlar davomida ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlarni umumlashtirgan, shu bilan birga, o'qituvchi-muallim qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak, degan savolga o'z tajribalaridan kelib chiqib javob beradi. Vojid Ali o'z asarida o'qitish, ta'lim-tarbiya usullari haqida ancha ilg'or fikrlarni ham bayon qiladiki, ulug' pedagoglarimiz, metodist (uslubchi) olimlarimiz maktablar faoliyatiga, vaqt o'tgan sayin o'qitish usullarining takomillashtirib borishga pedagoglar e'tiborini jalb qilganlar. Vojid Alining asari bilan tanishar ekansiz, o'qituvchi va o'quvchi oldiga qo'ygan talablar hozirgi pedagogik jarayonga ancha hamohang ekanligining guvohi bo'lasiz: "Bilgilki, muallimlik-o'qituvchilik kasbi o'quvchi va tolibi ilmlarga dastur hamda ta'lim qoidalari-uslubiyati asosida ta'lim berishdan iborat bo'lib, bu kasb, ya'ni muallimlik-o'qituvchilik eng sharaflil kasblardandir".

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Al-Isloh. 1915 yil, 13-son.
2. Alisher Navoiy. Asarlar. Vaqfiya, o'n besh tomlik. 13-tom. Toshkent, 1966, 149-bet.
3. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Samarqand, 2001.
4. Bartold V.V. Istoriya kulturnoy jizni Turkestana. Leningrad, 1927. S.308.
5. Bendrikov K.E. Ocherki po istorii narodnogo obrazovaniya v Turkestane. Moskva, 1960. S.214.
6. Vtoraya kniga dlya chteniya. Posobiya dlya obucheniya russkomu yazo`ku v inorodcheskix uchilihax. Sostavitel S.Gramenitskiy, 2-e izdanie. Tashkent, 1899. S.81.
7. V kn. Agrarno`y vopros i krestyanskoe dvijenie 50-70 gg. XIX veka. Chast I. M.-L., 1936 g. S.285.
8. Valixo`jaev Boturxon, Samarqandda oliy ta'lim-madrasayi oliya-universitet tarixidan lavhalar
9. Dobromo`slov A.I. Tashkent v proshlom i nastoyahem.. Tashkent, 1912. S.203.
10. Ishoqxon Ibrat, Sa'ati Ibrat, qalami Mirrajab Bandiy, "Matbaai Ishoqiya", To`raqo`rg`on, 1908 yil, 12-bet.
11. Ismoil bey Gasprinskiy (Gaspralo`). Iz naslediya. Simferopol, "Tavriya", 1991 g. S.42.
12. Gramenitskiy S.M. Polojenie inorodcheskogo obrazovaniya v So`rdarinskoy oblasti. Tashkent, 1916. S.18.
13. Znamenskiy P.V. Uchastie N.I.Ilminskogo v dele inorodcheskogo obrazovaniya v Turkestanskom krae. Kazan, 1900. S.26.
14. Karimov Sh., Shamsuddinov R.. Turkiston Rusiyo bosqini davrida. "Meros", Andijon, 1995 yil, 90-91-betlar.
15. Kaykovus, Qobusnoma, Toshkent, "Istiqlol", 1994
16. Maorif va o`qitg`uvchi" jurnali, 1925-yil, 9-son.
17. Mets Adam. Musulmanskiy renessans. Izdatelstvo "Nauka", Moskva, 1978. S.154.
18. Navoiy zamondoshlari xotirasida. Xondamir. Xulosat ul-axbor. T., 1986. Adabiyot va san'at nashriyoti. 67-bet.
19. Musulmanskie deputato` Gosudarstvennoy dumo` Rossii 1906-1917 gg. Ufa, 1998 g. S.120-121.
20. Nalivkin V.P. Tuzemtso` ranshe i teper. Gazeta "Turkestanskiy kurer", 1913, № 38.
21. Ostroumov N.P. K istorii narodnogo obrazovaniya v Turkestanskom krae, Tashkent, 1899 g.
22. Tarjimon", 1894 yil, 8-son.

23. Ostroumov N. Chto takoe Koran? Tashkent, tipografiya arenduemaya F.V.Bazilevskiy. 1883 g. S.31.
24. Pismo N.I.Il'minskogo k ober-prokuroru Svyateyshego Sinoda K.P.Pobedonostsevu". V kn. Musul'manskije deputaty Gosudarstvennoy dумы Rossiі 1906-1917 gg. Ufa, 1998 g. S.120.
25. "Protokol zasedaniy sobraniya uchiteley gorodskix uchilix Turkestanskogo kraya (30G`XII-1883-3G`I 1884)". Tashkent. S.17.
26. Turkiston viloyatining gazetisi". 1888 y., 31 dekabr.
27. Turkiston viloyatining gazetisi", 1890 yil, 32-son.
28. Turkiston viloyatining gazetisi". 1890 y., 6, 8, 16, 19, 24-sonlar
29. Turkiston viloyatining gazetisi", 1891 yil, 8 aprel, 14-son.
30. Qodirova Mahbuba, Dilshod (hayoti va ijodi). T., "Fan", 1971, 62-bet.
31. O`zbek sovet entsiklopediyasi. 12-jild. T., 1979, 356-bet.
32. O`zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi. 47-fond, 281-delo, 390-bet.
33. O`zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi, 47-fond, 2124-delo. Opis Upravleniya uchebno`mi zavedeniyami Turkestanskogo kraya, 1896.